

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi**

Farg'ona politexnika instituti

“BX va A” kafedrası

**«Pul, kredit va banklar»
fanidan**

USLUBIY QO'LLANMA



Farg'ona -2011

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi**

Farg'ona politexnika instituti

«BH va A» kafedrası

**«Pul, kredit va banklar» fanidan
5340100 - «Iqtisodiyot» va 5340200 - “Menejment”
yo'nalishi talabalari uchun amaliy (seminar)
mashg'ulotlarini o'tkazish bo'yicha**

USLUBIY QO'LLANMA

Institut uslubiy kengashi
tomonidan tasdiqlangan.
Bayon №

_____2011yil.

Mazkur uslubiy qo'llanma amaliy va seminar mashg'ulotlarni o'tkazish uchun kunduzgi bo'lim Iqtisodiyot va menejment fakultetining «Iqtisodiyot» va «Menejment» yo'nalishlarida ta'lim olayotgan talabalar uchun yangi uquv rejasi asosida tuzilgan. Mavzularni tanlashda muallif bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida iqtisodiy xayotni barqarorlashtirishning asosiy omillaridan biri bo'lgan pul muomalasi, moliya, kredit va unga bog'liq muammolar hamda bu muammolarni bartaraf etish masalalariga alohida e'tibor qaratgan.

Uslubiy qo'llanma «BX va A» kafedrasi yig'ilishi tomonidan 2011 yilning _____da nashr etishga tavsiya qilingan. Bayon № .

Uslubiy qo'llanma «Iqtisod va menejment» fakultetining uslubiy kengashi tomonidan 2011 yilning _____da nashr etishga tavsiya qilingan. Bayon №

Mualliflar:

i.f.n. dotsent Qunduzova Q.I.
ass. Maxmudova .G.N.

Takrizchilar:

I.f.n., A.O'rinov
k.o'., V.Yakubov

1. SO'Z BOSHI.

“Milliy valyuta - milliy iftixor, davlat mustaqilligining ramzi, suveren davlatga xos belgidir. Bu respublikaga tegishli umumiy boylik va mulkdir.”

I. Karimov

1.1.O'qitish maqsadi va vazifasi.

“Pul, kredit va banklar” kursi iqtisodiy mutaxassisliklar bo'yicha fanlarni o'rganish uchun asos hisoblanadi. Bu kursning maqsadi xar qanday tizimning nazariy jihatdan va tarixan ko'rib chikishdan kelib chikadi. SHuning uchun kursning asosiy maqsadi talabalarning pul-kredit soxasi qonuniyatlarini, uning ijtimoiy takror ishlab chikarishdagi tutgan o'rnini o'zlashtirishlari, shuningdek, pul nazariyalari va kurinishlari, bozor iqtisodiyoti sharoitida pul-kredit tizimini vujudga kelishi va aloxida mamlakatlarning pul-kredit tizimlari, banklarning faoliyati va funktsiyalari, fond birjalari haqidagi aniq bilimarni egallashlari, pul-kredit tizimi soxasidagi inkirozli kurinishlarni va ularni keltirib chikaruvchi omillarning mohiyatini chukur o'zlashtiridan iborat.

1.2. Fan bo'yicha talaba bilimiga va ko'nikmasiga qo'yiladigan talablar.

A) bilishi kerak:

-Pul va kredit nazariyasini puxta va ketma-ketlikda yoritish, shu bilan birgalikda bu nazariyani zamonaviy pul-kredit tizimini o'rganishga tadbikan holda ko'rib chikish.

- Pul va kreditni ijtimoiy takror ishlab chakirish jaraeniga to'ʻri va teskari aloqali iqtisodiy munosabatlarning yigindisi sifatida ko'rib chikish xamda pul-kredit soxasini, uning axvoli va rivojlanishiga teskari taosirini ko'rsatish.

- Bozor iqtisodiyotining hozirgi zamon pul-kredit tizimini yoritib berish va tizimning tarkibiy elementlarini o'zaro bog'langanligini taxlil etish.

- Aktsioner jamiyatini tashkil qilish zaruriyati va uning mohiyati. Qimmat baho qog'ozlar turlarini tavsiflash (aktsiya, obligatsiya, zaklad qog'ozlari). Fond birjasi va birja operatsiyalari.

- Bozor iqtisodiyotini zamonaviy pul-kredit tizimini strukturasini yoritish va shu tizimni shakllantiruvchi asoslarni taxlili.

- Zamonaviy banklarning kelib chikishi, ularning mohiyati, vazifalari va operatsiyalari.

- Inflyatsiyaning mohiyatini va uning sabablarini yoritish. Pul-kredit mexanizmini tushunchasini yoritish. Pul-kredit mexanizmi tushunchasini berish va u bilan bozor iqtisodiyotida foydalanish.

- Xalqaro valyuta kredit munosabatlari asosi bilan tanishish.

- O'zbekiston Respublikasi pul-kredit tizimini ko'rib chikish.
- Sug'urtalash amaliyotini o'rganish.

B) bajarishi kerak:

-Pul nazariyasi va bozorlari amaliy faoliyatini, tijorat banklarining operatsiyalar jarayonini, jaxon bozori va ayrim davlatlar iqtisodida ro'y berayotgan inflyatsion sharoitlarni, zamonaviy sharoitdagi kapitallar oqimini, import va eksport operatsiyalarini moliyalashtirishni, xorijiy qimmatli qog'ozlar portfelini boshqarishni o'rganishda maxsus adabiyotlar, tijorat banklarining materiallari va boshqa manbalardan foydalanish;

-Pul-kredit nazariyasida bo'layotgan zamonaviy o'zgarishlar, kurs va baholar tendentsiyalari, inflyatsiya jarayonlari va valyuta, kredit, qimmatli ko'ozlar operatsiyalarini amalga oshirish mexanizmini tushunish.

V) quyidagi tasavvurga ega bo'lish kerak:

-Pul-kredit nazariyasi, bozorlari, kurslar va baholar, moliya bozorining rivojlanish tendentsiyalari, bank operatsiyalari hamda boshqa jarayonlardagi o'zgarishlardan nima maqsadda foydalanishni;

-xalqaro, xududiy va milliy moliya bozorlarida bo'layotgan jarayonlar orasidagi o'zaro bo'liqliliklarni;

-pul, kredit, qimmatli ko'ozlar bozori faoliyatining ko'rsatkichlari, valyuta, fond va kapitallar bozorida operatsiyalar xaqida tasavvurga ega bo'lishi kerak

1.3. “Pul, kredit va banklar” fanining o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi.

O'quv dasturiga asosan talabalar «Pul, kredit va banklar» fanini chuqur o'rganadilar va o'quv jarayonida qonun, Nizom va milliy qoidalardan foydalanadilar. SHu bilan bir qatorda ushbu fan quyidagi fanlar bilan chambarchas bog'langan.

«Pul, kredit va bank» fani zamonaviy moliyaviy boshqaruvning bir qismi bo'lib, talabalarga pul va kredit nazariyasi xaqida to'liq tushuntirish berish bilan birga bank faoliyatidagi operatsiyalarni o'qitish tartibini va ularni o'qitishda vujudga keladigan tavakkalchiliklarni tahlil qilishning uslublarini quyidagi fanlar bilan bevosita bog'liq holda o'rgatadi:

- Iqtisodiyot nazariyasi;
- Xo'jalik faoliyatini taxlil qilish;
- Davlat byudjeti;
- Moliya nazariyasi;
- Moliyaviy boshqaruv;
- Bank ishi;
- Qimmatli qog'ozlar va fond birjasi;
- Sug'urta ishi;
- Xalqaro hisob-kitob munosabatlari;
- Moliyaviy tahlil.

1.4.Fanni o'rgatish jarayonida qo'llaniladigan yangi texnologiyalar.

«Pul, kredit va banklar» fanini o'rganish jarayonida quyidagi yangi texnologiyalar qo'llaniladi:

a) o'quv jarayoning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda talabalarga maxsus vazifalar va masalalarni ishlab chiqish;

b) o'quv jarayonida foydalanish uchun asosiy jarayonlar uchun slaydlar tayyorlash;

v) test savollari va shartli voqealar bo'yicha testlarni ta'minlash;

g) fanni o'rganish jarayonini tayanch so'zlar bilan ta'minlash;

1.4.1. Asosiy qism

Fanni o'qitish semestrlari va uslubiy ko'rsatmalar

«Pul, kredit va banklar» fani bakalavriatning "Iqtisod" va "Menejment" ta'lim yo'nalishidagi talabalariga uchinchi kursning 5- semestrida o'qitiladi.

Bu fanni o'qitishga, asosan barcha ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar, matematik va tabiiy fanlar o'rganib bo'lganidan keyin o'tiladi.

«Pul, kredit va banklar» fanidan o'quv rejasi bo'yicha jami 162 soat ajratilgan bo'lib, shundan 42 soati ma'ruza, 42 soati amaliy (seminar), 78 soat mustaqil ta'lim mashg'ulotlariga ajratilgan.

«Pul, kredit va banklar» fani mavzularining mazmuni

№	Fan bo'limi va mavzusi	Maruza	Amaliy mashg'ulot	Pedagogik texnologiya usullari
	1-bo'lim. Pul nazariyasi va tizimi			
1	Pulning zarurligi va mohiyati	2	2	Aqliy hujum
2	Pul aylanishi va uning tuzilishi	2	2	Ma'ruza-tortishuv,taqdimot
3	Naqd pul va naqd pulsiz pul aylanishi	2	2	taqdimot
4	Pul muomalasi qonuni. Pul massasi va pulning aylanish tezligi	2	2	taqdimot
5	Pul tizimi, uning mohiyati, turlari va elementlari	2	2	taqdimot
6	Pul nazariyalari	2	2	Aqliy hujum
	2 -bo'lim. Kredit nazariyasi va kredit munosabatlari			

7	Kreditning mohiyati va zarurligi	2	2	Klaster usuli
8	Kreditning tamoyillari va tasniflanishi	2	2	Aqliy hujum
9	Kreditning asosiy shakllari. Ssuda foizi	2	2	Ma'ruza - tortishuv
	3 –bo'lim. Moliya va moliya tizimi			
10	Moliya va uni boshqarish	2	2	Aqliy hujum
11	Davlat moliyasi	2	2	Klaster usuli
	4-bo'lim Korxonalar moliyasi			
12	Tijorat va notijorat asosda faoliyat yurituvchi korxonalar moliyasi	2	2	Muammoli vaziyat
13	Moliyaviy hisobot va uning tahlili	2	2	Aqliy hujum
	5 -bo'lim.Bank tizimi			
14	Jahon moliyaviy inqirozi sharoitida banklarning mohiyati va bank tizimi	2	2	Klaster usuli
15	Markaziy bank va uning faoliyati	2	2	Aqliy hujum
16	Tijorat banklari faoliyatini tashkil qilish asoslari	2	2	taqdimot
17	Tijorat banklarining passiv va aktiv operatsiyalari	2	2	Aqliy hujum
18	Inflyatsiya va uni barqarorlashtirish usullari	2	2	Aqliy hujum
19	Qimmatli qog'ozlar va ularning ta'rifi	2	2	Aqliy hujum
20	Jahon valyuta tizimi va uning rivojlanish bosqichlari.	2	2	Klaster usuli
21	Xalqaro hisob-kitoblar. Xalqaro kredit va xalqaro investitsiyalar	2	2	Aqliy hujum
21	Sug'urtalash	2	2	Muammoli vaziyat
	Jami	42	42	

1.4.2. O'QUV MATERIALLARINING MAZMUNI.

Amaliy (seminar) mashg'ulotlarning namunaviy mavzusi va rejalari

1 -bob. “Pul nazariyasi”. (10-soat)

Ushbu bobni o'rganishda talabalar quyidagilarga e'tiborni qaratmoqlari zarur: Pulning nazariyasi. Pulning asosiy xususiyatlari: muomaladagi pul massasining chegaralanganligi; pulning bir - xilligi va bilish belgilari; bo'linishi; ixchamlik; uzok muddatlilik; to'lov vositasi sifatida foydalanish imkoniyati. Pulning metall nazariyasi, pulning nominal nazariyasi. Pul–maxsus turdagi tovar. Pul muomalasi muammosi. Tanga–qiymat belgisi. Pulning miqdoriy nazariyasi. I.Fisherning pulning miqdoriylik nazariyasiga qo'shgan xissasi. Pul kredit tabiati va uning rivojlanishi. Kredit pullarning uch asosiy turi: veksel, banknota va chek. Kembridj boshqaruvi. Zamonaviy pul massasining tashkiliy tuzilishi. M0, M1, M2, M3 – pul agregatlari. Keynes pul nazariyasi. Zamonaviy monetarizm. Milton Fridman nazariyasi. Pulning funktsiyalari. Ushbu bob bo'yicha quyidagi seminar mashg'ulotlari o'tkaziladi.

Seminar mashg'ulotlari o'tkazish uchun namunaviy reja.

1-mashg'ulot

Mavzu 1. Pulning mohiyati va funktsiyalari (2 soat).

1. Pulning zarurligi va mohiyati.
2. Pulning funktsiyalari.
3. Pulning turlari.
4. Pulning barqarorligini taominlash asoslari
5. O'zbekistonda milliy valyuta-so'mning muomalaga kiritilishi va uning o'ziga xos xususiyatlari

Ushbu mavzu ilg'or pedagogik texnologiyalarning «aqliy hujum» usuli yordamida talabalarga tushuntiriladi, ya'ni talabalarga mavzuga taalluqli materiallar oldindan tarkatiladi va ularning mavzu bo'yicha o'zlashtirgan bilimlari dars jarayonida ikki tomonning faol ishtiroki yordamida muxokama qilinadi.

Talabalar bilimini faollashtiruvchi savollar:

1. Pulning zarurligini asoslang.
2. Pulning mohiyati nimada?
3. Pulning funktsiyalari asosan nima sababdan yuzaga keladi?
4. Kredit pullarning zarurati nimada?
5. Jamg'arma vositasi funktsiyasining ijobiy va salbiy taraflarini izohlang.

6. Muomala vositasi funktsiyasining ahamiyati nimada?
7. Milliy pulimizning barqarorligini saqlay olish uchun nimalar qilish zarur?
8. Milliy valyutaning nima sababdan qadri tushadi?
9. Pul qiymat o'lchov funktsiyasini qanday bajaradi?
10. Pulning tovarligini isbotlovchi dalillar keltiring.

Talabalar bilimini nazorat qilish uchun test savollari

1. Pul:
 - a) Xamma boshqa tovarlar uchun umumiy ekvivalent vazifasini bajaradi.
 - b) Xamma boshqa tovarlar singari o'zining qiymatiga ega.
 - s) Xamma boshqa tovarlar singari o'zining iste'mol qiymatiga ega.
 - d) Xamma tovarlar xarid etish vositasi bo'lib xizmat qiladi.
 - e) b va d javoblar to'g'ri
2. Qaysi mamlakatlarda pul vazifasini bug'doy bajargan?
 - a) Rimda
 - b) Afrikada
 - s) Qadimgi Misrda
 - d) Xitoyda
 - e) Mo'g'ilistonda
3. Pulning paydo bo'lishi:
 - a) Qiymatning oddiy va tasodifiy shaklining vujudga kelishi bilan bog'liq.
 - b) Qiymatning to'la yoki kengaygan shaklining vujudga kelishi bilan bog'liq.
 - s) Tovar ishlab chiqarish va ayirboshlash jarayonining tobora rivojlanib borishi bilan bog'liq.
 - d) Qiymatning umumiy ekvivalent shaklining vujudga kelishi bilan bog'liq.
 - e) a, b, c, d javoblar to'g'ri
- 4) Pul:
 - a) Tovarlar qiymatini o'lchay oladi.
 - b) Muomala vositasi vazifasini bajaradi.
 - s) Jamg'arishning eng qulay usulidir.
 - d) To'lov vositasi hisoblanadi
 - e) a, b, c, d javoblar to'g'ri

Foydalanishga tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. -T.: O'zbekiston, 2005.
2. Abdullaeva SH.Z. Pul, kredit va banklar: Darslik. -T.: Moliya, 2000. 312 b.

3. Stenli L.Bryu. Kempbell M. Makkonnel. Ekonomiks. -Tallin. 1992 str. 264-275
4. Abdullaev Yo., Qoraliev T. Pul: 100 savol va javob. -T.Mehnat,1996. 7-59 betlar
5. S.S. Gulomov i dr. Den'gi, banki, kredit: Uchebnoe posobie / S.S. Gulomov, Yu.T. Dodoboev, A. Kucharov: pod. red. S.S. Gulomov. -T.: 2002. 298 str. str. 5-29.

2-mashg'ulot

Mavzu 2. Pul aylanishi. Naqd pulsiz va naqd pulli aylanish.(2 soat)

1. Pul aylanishi va uning mohiyati.
2. Pul aylanishining tarkibiy qismlari va ularning ozaro bogliqligi
3. Naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilishning asoslari.
4. Naqd pulsiz hisob-kitob shakllari.
5. O'zbekistonda plastik kartochkalar orqali hisob-kitob naqd pulsiz hisob-kitoblarning yangi shakli.

Ushbu mavzu ilg'or pedagogik texnologiyalarning «aqliy hujum» usuli yordamida talabalarga tushuntiriladi, ya'ni talabalarga mavzuga taalluqli materiallar oldindan tarkatiladi va ularning mavzu bo'yicha o'zlashtirgan bilimlari dars jarayonida ikki tomonning faol ishtiroki yordamida muxokama qilinadi.

Talabalar bilimini faollashtiruvchi savollar

2. Pul aylanishi deganda nimani tushunasiz?
3. Pul aylanishi o'zining harakat doirasida necha ko'rinishda bo'ladi?
4. Pul agregati nima?
5. Pul agregati qanday boshqariladi?
6. Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori qanday aniqlanadi?
7. Naqd pulsiz oborot nima?
8. Naqd pulsiz hisoblashuvlarni qanday turlarini bilasiz?
9. Naqd pulsiz hisoblashuvlarni iqtisodiyotga qanday taosiri bor?
10. To'lov talabnomasi bilan hisoblashuvlarni iqtisodiyotga qanday ta'siri bor.
11. Chek bilan hisoblashuvlar qanday amalga oshiriladi?

Talabalar bilimini nazorat qilish uchun test savollari

1. Naqd pulsiz hisob-kitob deganda nima tushuniladi?

- a) Naqd pul ishlatmasdan pul mablag'larini schyotdan-schyotga o'tkazish tushuniladi
- v) Naqd pul ishtirokisiz sotuvchi va sotib oluvchi schyotlarida yozuv orqali amalga oshiriladigan hisob-kitob tushuniladi
- s) Pul oborotining asosiy qismi (90%dan ortiqrog'i) ni tashkil qiluvchi hisob-

kitob tushuniladi

d)A va V javoblar to'g'ri

2. Mol yetkazib beruvchi uchun juda qulay hisoblangan hisob-kitob shaklini ko'rsating

a)Hujjatlashtirilgan akkreditiv

v)Inkasso

s)*To'lov topshiriqnomasi

d)To'lov-talabnoma topshiriqnomalari

3.Quyidagilarning qaysi biri naqd pulsiz hisob-kitoblar shakliga taaluqli?

a) Aktsept

v)Akkreditiv

s)CHek

d)Inkasso

4. Pul muomalasida qanday pullar ishtirok etadi?

a)Faqat naqd pul ishtirok etadi Faqat naqd pul bo'lmagan pul ishtirok etadi

v)Faqat naqd pul bo'lmagan pul ishtirok etadi

s)Faqat real pullar qatnashadi

d)Naqd pul va naqd bo'lmagan pullar ishtirok etadi

Foydalanishga tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. -T.: O'zbekiston, 2005.

2. Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim // O'zbekiston ovozi. -2005. -11 fevral.

3. O'zbekiston Respublikasi banklari o'rtasida elektron to'lovlar tizimi bo'yicha hisob-kitoblar yuritish to'g'risida Nizom (Yangi tahrir) 2004 y. 2 may.

4. O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar. 2004 yil 23 iyun.

5. Abdullaeva SH.Z. Pul, kredit va banklar: Darslik. -T.: Moliya, 2000. 312 b.

6. Abdullaev Yo., Qoraliev T. Pul: 100 savol va javob. -T.: Mehnat,1996. 63-85,87-92 betlar.

7. S.S. Gulomov i dr. Den'gi, banki, kredit: Uchebnoe posobie / S.S. Gulomov, Yu.T. Dodoboev, A. Kucharov: pod. red. S.S. Gulomov. -T.: 2002. 298 str. str. 29-51.

Internetdan olingan veb saytlar:

www.forex.com

www.uzland.uz

www.travel-library.com

3-mashg'ulot

Mavzu 3. Pul muomalasi qonuni. Pul massasi va pulning aylanish tezligi

Reja :

1. Pul muomalasi qonuni va uning mohiyati.
2. Pul massasi va pulning aylanish tezligi.
3. Pul muomalasini tartibga solish usullari.

Talabalar bilimini faollashtiruvchi savollar

1. Pul muomalasini tashkil qilish asoslari kassa aylanish prognozi, uning tarkibiy qismlarini tushuntiring.
2. Pul muomalasi qonunining mohiyatini tushuntiring?
3. Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori qanday aniqlanadi va u qaysi omillarga bog'liq?
4. Pul massasi nima va u nimaga bog'liq?
5. Pul agregatlarini sanang va asoslab bering.
6. Muomaladagi pul massasini qaysi yo'llar bilan tartibga solish mumkin?
7. Monetar siyosatning mohiyatini qanday tushunasiz?

Talabalar bilimini nazorat qilish uchun topshiriqlar :

1-masala.

Jadval ma'lumotlari asosida quyidagilar hisoblab chiqilsin:

- 1) yillik o'sish sur'ati:
 - a) pul bazasi;
 - b) muomaladagi naqd pullar (agregat MO);
 - v) pul massasi (agregat M2);
 - g) keng pullar (agregat M2X);
- 2) pul mul'tiplikatori miqdori;
- 3) naqd pullarning pul massasidagi (agregat M2) ulushi, %da.

Jadval

	01.01.08y.	01.01.09y.	01.01.10y.
Zahira pullar (mlrd so'm)	164,9	210,4	269,7
jumladan, bankdan tashqari pullar	103,8	130,4	187,8
Talab qilib olinadigan depozitlar	87,3	162,5	149,5
Muddatli va jamg'arma depozitlar	97,2	81,2	111,0
Xorijiy valyutadagi depozitlar	69,4	80,5	190,9

Echim.

1a. Pul bazasining yillik o'sishi 2008 y. 27,6% (210,4: 164,9); 2009 y. - 28,2% (269,7: 210,4) ni tashkil qildi.

1b. Muomaladagi naqd pullar (agregat M0) yillik o'sishi 2008 y. 25,6% (130,4: 103,8); 2009 y. - 44,1% (187,8:130,4) ni tashkil qildi.

1v. Pul massasi (agregat M2) yillik o'sishini hisob-kitob qilish uchun pul massasi hajmini aniqlash lozim. 01.01.08y. holatida agregat M2 288,3 mlrd so'm (103,8+87,3+97,2); 01.01.09y. - 374,1 mlrd so'm (130,4+162,5+81,2); na 01.01.10y. - 448,3 mlrd so'm (187,8+149,5+111,0) bo'lgan. Bundan kelib chiqadiki, 2008y. agregat M2 o'sish sur'ati 29,8% (374,1: 288,3); 2009y. - 19,8% (448,3:374,1)ni tashkil etgan.

1g. Keng pullar (agregat M2X) yillik o'sishini hisob-kitob qilish uchun keng pullar hajmini aniqlash lozim. 01.01.08y. holatida agregat M2X 357,7 mlrd so'm (288,3+69,4); 01.01.09y. -454,6 mlrd so'm (374,1+80,5); 01.01.10y. - 559,3 mlrd so'm (448,3+111,0)ga teng bo'ldi. Bundan kelib chiqadiki, agregat M2X o'sish sur'ati 2008 y. 27,1% (454,6:357,7); 2009y. - 23,0% (559,3: 454,6)ni tashkil qildi.

2. Pul multiplikatori 01.01.08y. 1,75 (288,3: 164,9); 01.01.09y. - 1,77 (374,1: 210,4); 01.01.10y. -1,66(448,3:269,7)ni tashkil qildi.

3. Pul massasida (agregat M2) naqd pullar salmog'i 01.01.08y. - 36% (103,8: 288,3); 01.01.09y. -34,9% (130,4: 374,1); 01.01.10y. - 41,9% (187,8:448,3)ni tashkil qilgan.

2-masala.

Jadval ma'lumotlari asosida hisoblab chiqilsin:

1) pul massasining (agregat M2) oldingi davrga nisbatan o'sish yoki pasayish sur'ati;

2) umumiy pul massasida (agregat M2) naqd pul (agregat M0) salmog'i, so'ngra bu jarayondagi dinamika.

Jadval

	2009 y.		2010 y.	
	1.01	1.04	1.01	1.04
Jami (mlrd so'm)	374,1	360,4	448,3	473,8
jumladan:				
naqd pullar	130,4	119,1	187,8	174,1
talab qilib olinadigan,				
muddatli va jamg'arma	243,7	241,3	174,1	299,7
depozitlar				

3-masala.

Germaniya bo'yicha keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagilar aniqlansin:

1) turli agregatlar bo'yicha pul massasining o'sish sur'ati;

2) pul massasining ayrim agregatlari rivojlanishida ijobiy yoki salbiy tendentsiyalar.

	Agregat M1	Agregat M2	Agregat MZ
2006 y. (mlrd yevro)	916,9	1315,9	2181,8
2007 y. (mlrd yevro)	938,0	1330,9	2259,7
2008 y. (mlrd yevro)	1042,1	1454,3	2425,7
2009 y. (mlrd yevro)	1089,0	2583,2	2777,6
2010 y. (mlrd yevro)	1102,5	2559,1	2758,5

4-masala.

Ma'lumki, 2010 yil yanvarida naqd pul aylanmasi (agregat MO) 1093,1 mlrd DM, pul agregati (MZ) — 2746,9 mlrd DM, MB majburiy zahiralar stavkasi — 10%ga teng. Aniqlash kerak:

- 1) pul massasida (agregat MZ) naqd pul aylanmasi ulushi;
- 2) pul mul'tiplikatori.

Pul muomalasining muhim tavsifnomasi pul bazasini hisob-kitob qilish hisoblanadi. *Pul bazasi* naqd pul, tijorat banklari korrespondentlik schetlaridagi mablag'lar va markaziy bankdagi majburiy zahiralar yig'indisini ifodalaydi.

Pul bazasini hisob-kitob qilish quyidagi formula aniqlanadi:

$$DB = N + K + O,$$

bu yerda:

N – naqd pul,

K – tijorat banklari korrespondentlik schetlaridagi mablag'lar,

O – markaziy bankdagi majburiy zahiralar.

5-masala.

Ma'lumki, 2010 y. Germaniyada muomaladagi naqd pullar 246,8 mlrd DM, tijorat banklarining korrespondentlik schetlaridagi mablag'lar — 2745,0 mlrd DM, markaziy bankdagi majburiy zahiralar — 39522 mlrd DMni tashkil qildi.

Echim. 2010 yil uchun pul bazasini hisoblab chiqamiz.

$$DB = 246,8 + 2745,0 + 39\,522 = 42\,513,8 \text{ mlrd DM.}$$

6-masala.

Jadval ma'lumotlaridan foydalanib:

- 1) har bir yil uchun pul bazasini hisoblab chiqing;
- 2) pul bazasi dinamikasini va uning butun mamlakat pul muomalasi uchun ahamiyatini aniqlang.

Jadval

Yillar	<i>Naqd pul, mlrd DM</i>	<i>Tijorat banklarining korrespondentlik schetlaridagi mablag'lar, mlrd DM</i>	<i>Markaziy bankdagi majburiy zahiralar, mlrd DM</i>
2009	241	2903,3	41721
2010	242,6	3043,8	46432

7-masala.

Mahumki, 2009 y. yalpi milliy mahsulot hajmi 3549,6 mlrd DM, pul massasi (agregat M1) - 916,9 mlrd DMni tashkil qilgan. Pul muomalasi tezligini aniqlash talab etiladi.

Echim. Keltirilgan formuladan kelib chiqib, pul muomalasi tezligi quyidagicha bo'ladi: $5,87 = 3549,6:916,9$.

8-masala.

Jadval ma'lumotlari asosida aniqlang:

1) har yili pul muomalasi tezligi qanday;

2) pul muomalasi tezligi o'zgarishida qanday tendentsiya kuzatilmoqda?

Bunda shuni ehtiborga olish kerakki, pul muomalasi tezligining o'sishi pul massasi ortishiga teng, bu esa inflyatsiya jarayonlarining kuchayishiga xizmat qiladi.

Jadval

Yillar	<i>YaMM mlrd DM</i>	<i>Pul massasi (agregat M1), mlrd DM</i>
2009	3601,1	938,0
2010	3678,6	1042,1

Real YaMMni (yoki YaMM o'zgarmas narxlarida yalpi ichki mahsulot) tavsiflash uchun deflyatordan foydalaniladi. *Deflyator* bu – narx o'sishi indekslaridan biri bo'lib, u o'zgarmas narxlarga qayta hisoblash koeffitsientini ifodalaydi.

$$ЯММ (\text{ёки } ЯИМ) \text{ дефлятори} = \frac{T}{H}$$

bu yerda

T – joriy narxdagi YaMM (YaIM);

N – o'zgarmas narxlarda YaMM (YaIM).

4-mashg'ulot**Mavzu 4. Pul tizimi, uning mohiyati, turlari va elementlari****Reja :**

1. Pul tizimi va uning turlari.

2. Rivojlangan mamlakatlarning hozirgi zamon pul tizimi.
3. O'zbekiston Respublikasi pul tizimi.

Ushbu mavzu ilg'or pedagogik texnologiyalarning «aqliy hujum» usuli yordamida talabalarga tushuntiriladi, ya'ni talabalarga mavzuga taalluqli materiallar oldindan tarqatiladi va ularning mavzu bo'yicha o'zlashtirgan bilimlari dars jarayonida talabalarni guruhlariga ajratilgan holda, ikki tomonning faol ishtiroki yordamida muhokama qilinadi.

Talabalar bilimini faollashtiruvchi savollar :

1. Pul tizimi nima, uning qanday elementlari mavjud?
2. Bimetallizm va monometallizmning mohiyatini tushuntiring.
3. Monometallizm tizimining o'ziga xos xususiyatlarini sanab bering?
4. O'zbekiston Respublikasining pul tizimi to'g'risida nimalarni bilasiz. Uning elementlarini sanab bering?
5. Rivojlangan davlatlarning pul tizimining qanday xususiyatli tomonlarini bilasiz?
6. So'm qachon muomalaga kiritilgan?
7. Qadimiy pullar to'g'risida nimalarni bilasiz?
8. Sizningcha so'mning barqarorligini ta'minlash uchun nimalarga e'tibor berish lozim?
9. Emissiya tizimi nima?
10. Baho masshtabi nimani anglatadi?

Talabalar bilimini nazorat qilish uchun test savollari

1. Pul tizimi deganda:

- *A) Pul muomalasini qonuniy va mutanosib ravishda tashkil qilishda kuyiladigan uslublar majmuasi tushuniladi.
- B) Parallel valyutalar tizimi tushuniladi.
- C) Ikki yoklama valyuta tizimi tushuniladi.
- D) To'g'ri javob yo'q.

2. Bimetallizm deganda:

- *A) Oltin va kumushga qonuniy tartibda umumiy ekvivalent rolini biriktirib qo'yilishi tushuniladi.
- B) Bitta metallga barcha tovarlar qiymatini o'zida aks ettiruvchi umumiy ekvivalent rolini biriktirib qo'yilishi tushuniladi.
- C) Pulni olqishlovchi nazariya tushuniladi.
- D) Oltinni pulning barcha vazifalarini bajarishda mahrum etilishi tushuniladi.

3. Monometallizm deganda:

- A) Parallel valyuta tizimiga qonuniy tartibda umumiy ekvivalent rolini biriktirib qo'yilishi tushuniladi.

- B) Ikki yoqlama valyuta tizimiga qonuniy tartibda umumiy ekvivalent rolini biriktirib qo'yilishi tushuniladi
- C) «Oqsoqlanuvchi» valyuta tizimiga qonuniy tartibda umumiy ekvivalent rolini biriktirib qo'yilishi tushuniladi
- *D) Bitta metallga barcha tovarlar qiymatini o'zida aks ettiruvchi umumiy ekvivalent rolining biriktirib qo'yilishi tushuniladi.

4.Parallel valyuta tizimida:

- A) Oltin va kumush tangalar qonuniy to'lov vositalari hisoblangan bo'lsalarda, kumush tangalarni zarb etish yopiq tarzda, oltin tangalarni zarb etish esa, erkin holda amalga oshiriladi.
- B) Oltin va kumush tangalar o'rtasidagi nisbat davlat tomonidan belgilab qo'yilgan.
- *C) Oltin va kumush tangalar o'rtasidagi nisbat bozor baholariga mos ravishda stixiyali tarzda o'rnatilgan.
- D) «Bimetallizm o'zining kumush oyog'ida oqsab qolgan»

5.Oltinni demonitizatsiya qilish deganda uning:

- A) Erkin zarb etilishi va muomalada bimalol harakatda bo'lishi tushuniladi.
- *B) Pulning barcha vazifalarini bajarishdan mahrum etilishi tushuniladi.
- C) Oltindan tezavratsiya maqsadlarida foydalanish tushuniladi.
- D) Jismoniy shaxslar va davlatlar o'rtasida cheklangan miqdorda harakat qilish tushuniladi.

Adabiyotlar:

- 1.I. Karimov Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. T. O'zbekiston. 2005
- 2.SH. Abdullaeva Pul, kredit va banklar. T. 2002 y.
- 3.SH. Abdullaeva Pul va pul tizimi. T. 1997 y
- 4.Stenli L.Bryu. Kempbell M. Makkonnel. Ekonomiks. Tallin. 1992 str. 264-275
- 5.Yo.Abdullaev, T.Qoraliev. Pul: 100 savol va javob. Toshkent. Mexnat.1996. 87-92 betlar.
- 6.S.S. Gulomov, Yu. T. Dodoboev, A. Kucharov. Den'gi, banki, kredit. Uchebnoe posobiya. Tashkent-2002. str. 57-67, 260-286.

5-Mashg'ulot (seminar mashg'uloti)

Mavzu 5. Pul nazariyasi. (2 soat)

Reja:

1. Pul nazariyalarining kelib chiqishi va mohiyati.
2. Metall pullar nazariyasi.
3. Nominal pullar nazariyasi.
4. Hozirgi zamon pul nazariyalari: miqdoriy nazariya, monetarizm.

Talabalar bilimini faollashtiruvchi savollar :

1. Pul nazariyasi deganda nimani tushunasiz?
2. Pul nazariyasining qanday turlari mavjud?
3. Metall pul nazariyasining dastlabki asoschisi kim?
4. Metall pul nazariyasining asoschilari qanday g'oyani ilgari surdilar?
5. Ilk metall pul nazariyasi tarafdorlarining asosiy kamchiliklari nimada edi?
6. Nominalizm nazariyasi qachon paydo bo'ldi va uning asoschilari kimlar?
7. Nominalistlar qanday xulosaga keldilar va ularning kamchiligi nimada edi?
8. Miqdoriy nazariya qachon va qanday paydo bo'ldi?
9. Miqdoriy nazariyasi asoschilari kimlar va ular qanday g'oya bilan chiqishdi?
10. Fisher ta'limotiga ko'ra «sotib olish quvvatiga» ta'sir etuvchi olti omilni ko'rsating?
11. Monetarizm pul nazariyasi qachon paydo bo'la boshladi va uning asoschilari kimlar edi?

Talabalar bilimini nazorat qilish uchun test savollari

1. Miqdoriylik nazariyasi namoyondalari:

- A) Faqat qimmatbaho metallargina (oltin va kumush) pul vazifasini o'tay oladi deyishgan.
- B) Jamiyatning boyligi faqat qimmatbaho metallarning mavjud zahirasi bilan o'lchanadi degan xulosaga kelishgan.
- C) Qaysi jamiyatda oltin va kumush zahirasi ko'p bo'lsa, o'sha jamiyat boy hisoblanadi degan xulosaga kelishgan.
- *D) Pulning xarid quvvati muomaladagi pul miqdoriga teskari proportsional degan xulosaga kelishgan.

2. Nominallik nazariyasi namoyondalari:

- A) Pulning xarid kobiliyati bozorda o'rnatiladi degan xulosaga kelishgan
- B) Muomalada emissiya qilingan barcha pullar yuradi degan xulosaga kelishgan
- C) Baholar darajasi pul miqdoriga to'g'ri proportsional degan xulosaga kelishgan
- *D) Pulning qiymati unda yozib qo'yilgan nominal bo'lishi va u davlat tomonidan belgilanishi lozim degan xulosaga kelishgan.

3. Metallik nazariyasi namoyondalari:

- *A) Oltin va kumush pulning barcha vazifalarini bajara oladi degan xulosaga kelishgan
- B) Muomaladagi pul miqdori va pulning aylanish tezligi pulning xarid quvvatini belgilovchi omil degan xulosaga kelishgan
- C) Baholarning tortilgan o'rtacha darajasi va tovarlar miqdori uning xarid quvvatini belgilovchi omil degan xulosaga kelishgan

D) Bank depozitlarining summasi va depozit chek muomalasining tezligi pulning xarid kuvvatini belgilovchi omil degan xulosaga kelishgan

4. Quyidagi qarashlardan keynschilarga xos bo'lgan g'oyani toping:

A) Pulga bo'lgan talab narxlarning mutlok darajasiga bog'lik.

B) Pulga bo'lgan talab ishlab chiqarish miqyosiga bog'lik.

*C) Pulga bo'lgan talab pul oboroti tezligiga bog'lik.

D) Boylikni zarar ko'rish xataridan asrash uchun pul shaklida saqlash.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1.Karimov I.A. "Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida" T. "O'zbekiston" 2005. 14-27 b.

2.Karimov I.A. "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish-davr talabi". "Xalq so'zi". 14 fevral 2009 y.

3.Karimov I.A. "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" T. "O'zbekiston" 2009. 44-47 b.

4.Rashidov O.Yu. va boshqalar. Pul, kredit va banklar. Darslik. T.: TDIU, 2007. 11-63 b.

5.Деньги, кредит, банки / Под ред. Г.Н. Белоглазовой: Учебник. – М.: Юрайт-Издательство, 2008. – 62-70 с.

2-bob "Kredit asoslari" (6-soat)

Ushbu bobni o'rganishda talaba quyidagilarni o'zlashtirishi lozim: Kreditning zarurligi va mohiyati. Ssuda foizi, ssuda kapitali va kreditning iqtisodiy asoslari. Ssuda kapitali manbasi va harakat qilish shakllari. Kreditning asosiy funktsiyalari va tashkil qilish asoslari. Qaytarib berishlilik, muddatlilik, tulovlilik, ta'minlanganlik va ishonch. Kreditning shakllari va turlari. Sudxo'rlik krediti. Tijorat (kommertsiya savdo) krediti. Bank krediti. Davlat krediti. Iste'mol krediti. Xalkaro kredit. Ssuda foizi, mohiyati, turlari va ularga ta'sir qiluvchi omillar. Suzuvchi foiz stavkasi, qat'iy belgilangan foiz stavkasi. Kredit tizimi: mohiyati va kredit tizimining tashkiliy tuzilishi. Kredit tizimi turlari. Kredit nazariyasining asoslari. Kapitalni yaratish nazariyasi. Kreditning natural nazariyasi. Ushbu bob bo'yicha quyidagi seminar mashg'ulotlari o'tkaziladi.

6-Mashg'ulot

Mavzu 6. Kreditning mohiyati va iqtisodiyotdagi roli. (2- soat)

Reja:

1. Kreditning zarurligi va mohiyati
2. Kreditni harakat bosqichlari
3. Kreditning funktsiyalari
4. Kredit nazariyalari

Ushbu mavzu ilg'or pedagogik texnologiyalarning «Blits-so'rov, birgalikda o'qiymiz, iqtisodiy esse, "kredit" so'ziga klaster, munozara» usullari yordamida olib boriladi, ya'ni talabalarga mavzuga taalluqli materiallar oldindan tarqatiladi va ularning mavzu bo'yicha o'zlashtirgan bilimlari dars jarayonida talabalarni guruhlariga ajratilgan holda, ikki tomonning faol ishtiroki yordamida muhokama qilinadi.

Talabalar bilimini faollashtiruvchi savollar:

1. Kredit nima?
2. Kreditning mohiyatini tushuntirib bering ?
3. Kreditning zarurligi nimada?
4. Kredit funktsiyalarini ayting?
5. Kredit ittifoqlari haqida nima deya olasiz?
6. Kreditning harakat bosqichlarini tushuntiring.
7. Kredit nazariyalari asoschilari kimlar?

Talabalar bilimini nazorat qilish uchun test savollari

1.Kredit – bu:

- a) korxonaning oborot mablag'lari;
- b) vaqtincha bo'sh turgan mablag'lar;
- *v) vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini ma'lum muddatga, haq to'lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan iqtisodiy munosabatlar yig'indisi;
- g) vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini haq to'lash sharti bilan qarzga olish bilan bog'liq munosabatlar yig'indisi;
- d) to'g'ri javob yo'q.

2.Kredit ob'ekti nima?

- a) qarzdor;
- b) qarz beruvchi;
- v) qarzga berilgan kredit qiymati;

g) a va b javoblar to'g'ri.

d) to'g'ri javob yo'q;

3. Kredit sub'ekti nima?

a) qazdor;

b) qarz beruvchi;

v) to'g'ri javob yo'q;

g) qarzga berilgan kredit qiymati;

d) a va b javoblar to'g'ri

4. Kreditning nechta asosiy funktsiyasi mavjud?

a) 4 ta

b) 5 ta

v) 3 ta

g) 6 ta

d) to'g'ri javob yo'q.

Talabalar mustaqil ishlashi uchun topshiriqlar

1-masala.

Korxona ikki yil muddatga yillik 15% stavkada 100 mln so'm kredit oldi, kredit muddati tugagach, u ssudani foizlar bilan qaytarib berishi lozim. Korxona qancha pul to'lashi lozim? Foizlar oddiy.

2-masala.

Firma bir yil muddatga yillik 16% stavkada 300 mln so'm miqdorida kredit oldi. To'lanadigan kredit miqdorini aniqlang.

3-masala.

Yosh oila bankdan uy-joy qurilishi uchun yillik 16% oddiy stavkada uch yil muddatga 60 mln so'm miqdorida ssuda oldi. Kredit miqdori va foizlarni aniqlang.

4-masala.

«Ipotekabank» tomonidan banklararo resurs bozorida 20 mln. so'mlik kredit "Asaka" bankiga berildi. Bunda kredit 18 martdan 18 maygacha berildi.

Berilgan kredit bo'yicha 28 mart holatiga "Ipotekabank" oladigan daromadni hisoblang.

Bunda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$Ye = t / t_0 * E_n$$

Bu yerda:

E_n - aniq bir operatsiya bo'yicha olinadigan umumiy daromad;

t_0 -daromad hisoblanadigan shartnoma muddati(shartnoma bo'yicha daromad hisoblanadigan muddat);

t - foiz hisoblanadigan muddat;

E – operatsiya bo'yicha aniq bir sanada olinadigan daromad.

5-masala

Bank faktoring xizmati haqi 40 ming so'mni va kredit bo'yicha yillik foiz 30% ni tashkil qilishi ma'lum. Hisob-kitobdagi mablag'lar aylanishining o'rtacha muddati 10 kunni tashkil qiladi deb hisoblab faktoring operatsiyasi bo'yicha kredit summasini aniqlang.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. I. Karimov Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'grisida. T. O'zbekiston. 2005
2. SH. Abdullaeva Pul, kredit va banklar. T. 2002 y.
3. A.Vaxobov, N.Jumaev, U.Burxonov. Xalqaro moliya munosabatlari. Toshkent, «SHarq», 2002. 256-270 betlar.
4. Yo.Abdullaev, T.Qoraliev. Kredit: 100 savol va javob. Toshkent
5. S.S. Gulomov, Yu. T. Dodoboev, A. Kucharov. Deng'gi, banki, kredit. Uchebnoe posobiya. Tashkent-2002.str.136-177.
6. Don Patinkin. Den gi, protsent i tseno. –M.: Ekonomika, 2004. – 375 str.
7. Milyakov N.V. Finanso. Uchebник. – M.: INFRA-M, 2004. – 543 str.
8. Molyakov D.S., SHoxin Ye.I. Teoriya finansov predpriyatiy. Ucheb. posob. – M.: FiS, 2001. – 300 str.
9. Sviridov O.Yu. Finanso, denejnoe obrahenie, kredit. Ekspress spravochnik dlya stud. vuzov. –M.: IKTS Mart, Rostov ngD. izd. TSentr Mart, 2004. – 179 str.
10. Den'gi, kredit, banki. Uchebник pod red. V.V. Ivanova, B.I. Sokolova. M.; 2004.

Internetdan olingan veb saytlar:

1. www.banker.com
2. www.bankinfo.uz
3. www.uzland.uz

7- Mashg'ulot

Mavzu 7. Kreditning asosiy tamoyillari (2 soat)

Reja:

1. Kreditning asosiy tamoyillari.
2. Kreditni boshka iqtisodiy kategoriyalari bilan uzaro bog'liqligi.
3. Ssuda fondi va uni mazmuni.

Ushbu mavzu ilg'or pedagogik texnologiyalarning «Blits-so'rov, birgalikda o'qiymiz, iqtisodiy esse, "kredit", so'ziga klaster, munozara» usuli yordamida olib boriladi, ya'ni talabalarga mavzuga taalluqli materiallar oldindan

tarkatiladi va ularning mavzu bo'yicha o'zlashtirgan bilimlari dars jarayonida talabalarni guruhlariga ajratilgan holda, ikki tomonning faol ishtiroki yordamida muxokama qilinadi.

Talabalarni 3 guruhga bo'ladi, har biriga vazifa beradi

Guruhlar uchun topshiriqlar.

1-guruh.

- 1.Character, capacity, capital, conditions, collateral tushunchalarining mazmunini yoritish.
- 2.“Kredit” so'ziga klaster tuzing.

1- guruh.

- 1.Kreditlash tizimi tarkibi qanday? U bilan bog'liq qanday tushunchalar mavjud?
- 2.“Kredit turlari” tushunchasiga klaster tuzing.

2- guruh.

- 1.Kreditning asosiy funktsiyalari va ularning mazmuni qanday?
- 2.“Ssuda kapitali” tushunchasiga klaster tuzing.

3- guruh.

- 1.Kredit tamoyillari qanday?
- 2.“Kredit funktsiyalari” tushunchasiga klaster tuzing

“Insert usuli”

Insert - samarali o'qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o'qib-o'rganishda yordam beradi. Bunda ma'ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o'qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o'z fikrini ifodalaydi.

Matnni belgilash tizimi

- (v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.
- (+) – yangi ma'lumot.
- (-) – men bilgan narsaga zid.
- (?) – meni o'ylantirdi. Bu borada menga qo'shimcha ma'lumot zarur.

Insert jadvali

Tushunchalar	V	+	-	?
Kredit				
Kredit ob'ekti				
Kredit sub'ekti				
Ssuda kapitali				
Kredit funktsiyalari				
Kredit tamoyillari				

Kredit turlari				
Kredit foizi				

Talabalar bilimini faollashtiruvchi savollar :

1. Kreditning nechta tamoyili bor?
2. Ssuda fondi va uni mazmunini tushuntirib bering?.
3. Kreditning qaytib berish tamoyili deganda nima tushunasiz?
4. Kreditning muddatligi tamoyilini ayting?
5. Kreditning tovar–moddiy boyliklar bilan ta’minlanganligi tamoyilini tushuntiring?
6. Kreditning maqsadlilik deganda nima tushunasiz ?
7. Kreditning boshqa iqtisodiy kategoriya sifatida boshqa iqtisodiy kategoriyalar, jumladan, pul, moliya, baho, xo’jalik hisobi bilan uzviy aloqada bo’ladi. Buning asosiy sabablari nimada?

Talabalar bilimini nazorat qilish uchun test savollari

1.Xozirgi kunda quyidagi garov **ob’ektlaridan** qaysi biri O’zbekiston Respublikasining bank amaliyotida qo’llanmoqda?

- A) Yer
- B) Xukumatning obligatsiyalari;
- C) To’lanmagan schyotlar;
- *D) Tovar-moddiy qiymatli buyumlar va narsalar;

2.Kreditning ta’minlanganlik **ob’ektlaridan** qaysi biri eng yuqori likvidlilik xususiyatiga ega?

- A) Yirik sanoat korxonalarning obligatsiyalari;
- B) Xukumatning obligatsiyalari;
- *C) Tovar moddiy qiymatliklar;
- D) Tulanmagan schyotlar;

3. Kreditning nechta tamoyili bor ?

- a) 5
- v) 7
- s) 8
- d) 6

4. Kreditning asosiy tamoyillari nimalardan iborat?

- a) qaytarib berishlilik, muddatlilik, maqsadlilik;
- b) muddatlilik, ta’minlanganlik, maqsadlilik, qaytarib berishlilik;
- v) qaytarib berishlilik, muddatlilik, ta’minlanganlik, maqsadlilik, to’lovlilik, samaradorlik;
- g) a va b;

d) to'g'ri javob yo'q.

5. Qaysi davrdan boshlab kreditning pul shakliga o'tishi to'la– to'kis amalga oshirildi?

- a) kapitalistik davrda;
- b) ibtidoiy tuzilma davrida;
- v) feodalizm davrida;
- g) to'g'ri javob yo'q;
- d) a va b javoblar to'g'ri.

6. O'zbekiston Respublikasida kredit resurslari bozorining rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan eng asosiy omillar nimalardan iborat?

- A) Kredit resurslariga bo'lgan talabning katta emasligi;
- *B) Banklararo raqobat muhitining to'la shakllanmaganligi;
- C) Vekselli va lombardli kreditlarning rivojlanmaganligi;
- D) Ochiq bozor operatsiyalarining rivojlanmaganligi.

Foydalanishga tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim // O'zbekiston ovozi. -2005. -11 fevral.
2. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. -T.: O'zbekiston, 2005.
3. Abdullaeva SH.Z. Pul, kredit va banklar: Darslik. -T.: Moliya, 2000. 312 b.
4. Vahobov A. va boshq. Xalqaro moliya munosabatlari: Darslik / A.Vahobov, N.Jumaev, U.Burxanov.-T.: SHarq, 2002.-399 b. 256-270 betlar.
5. Abdullaev Ye., Bobokulov T.I. Kredit: 100 savol va javob. -T.: Mehnat, 1997.
6. S.S. Gulomov i dr. Den'gi, banki, kredit: Uchebnoe posobie / S.S. Gulomov, Yu.T. Dodoboev, A. Kucharov: pod. red. S.S. Gulomov. -T.: 2002. 298 str.str.136-177.

8- Mashg'ulot

Mavzu 8. Kreditning asosiy shakllari.

Reja:

1. Tijorat krediti.
2. Iste'molchilar krediti.
3. Xalkaro kredit.
4. Davlat krediti va uni amalga oshirish mexanizmi.
5. Bank krediti va uning asosiy shakllari.

Ushbu mavzu ilg'or pedagogik texnologiyalarning «Blits-so'rov, birgalikda o'qiymiz, iqtisodiy esse, munozara» usuli yordamida olib boriladi, ya'ni talabalarga mavzuga taalluqli materiallar oldindan tarqatiladi va ularning mavzu bo'yicha o'zlashtirgan bilimlari dars jarayonida talabalarni guruhlariga ajratilgan holda, ikki tomonning faol ishtiroki yordamida muhokama qilinadi.

Talabalar bilimini faollashtiruvchi savollar:

1. Tijorat krediti berishning qanday usullari mavjud?
2. Kreditning asosiy shakllarini ayting.
3. Istemolchi krediti va uni turlarini ayting.
4. Bank krediti va uni turlarini ayting.
5. Kontokorrent krediti qanday tartibda beriladi?
6. Kreditning asosiy turlari va shakllarini sanang.
7. Xalkaro kreditning tasnifini keltiring.
8. Faktoring, forfeyting deganda nimani tushunasiz?
9. Overdraft nima?
10. Alohida schyotlar orqali kredit berish qanday amalga oshiriladi?

Talabalar bilimini mustahkamlash uchun topshiriqlar:

1-topshiriq

«Farg’ona don» kompaniyasi «Ipoteka» aktsionerlik tijorat banki bilan kontokorrent shartnomasi tuzmoqda. SHartnoma shartlari quyidagicha:

1. shartnomaning amal qilish muddati 1 yanvardan 1 iyulgacha (1 iyulda kontokorrent hisob bo’yicha operatsiyalar to’xtatiladi).
2. aktiv-passiv kontokorrent xisobraqam bo’yicha debet qoldiq limiti 400 ming so’mga teng.
3. kontokorrent xisobraqamni kredit qoldiq bo’yicha yillik foiz stavkasi 20%, bunda 15 martdan boshlab foiz o’zgaradi va 5%ga teng bo’lib qoladi.
4. kontokorrent hisobraqamni debet qoldiq bo’yicha yillik foiz stavkasi 30%ga teng, bunda 15 martdan boshlab foiz o’zgaradi va 10% ga teng bo’lib qoladi. Foizni o’zgarishi faqat zinapoyali usulda hisob-kitob qilishda hisobga olinadi.

Bir yildagi kunlar soni 360, yarim yildagi kunlar soni esa 180 kunga teng.

Kontokorrent shartnomani amal qilish vaqtida kontokorrent hisobraqamda quyidagi yozuvlar amalga oshirilgan:

- 5 yanvar-kredit 10 m.s, debet 30 m.s
- 20 yanvar-kredit 60 m.s, debet 50 m.s
- 28 fevral-kredit 200 m.s, debet 300 m.s
- 15 mart-kredit 30 m.s, debet 100 m.s
- 20 aprel-kredit 300 m.s, debet 350 m.s
- 10 may-kredit 10 m.s, debet 150 m.s
- 1 iyul-kredit 10 m.s, debet 120 m.s

agar kontokorrent krediti bo’yicha foizlarni hisoblashni 4ta usulidan foydalanilsa, hisobvaraqdagi mablag’lardan foydalanganligi uchun “Farg’ona don kompaniyasi” yoki “Ipoteka bank”i to’lashi kerak bo’lgan foiz summasini aniqlang:

- progressiv
- regressiv
- shtafel
- pogonali

Eslatma: progressiv usulda foizlar kreditni ochish to'g'risida haqiqatda xabar qilingan paytdan boshlab to hisobraqamni yakunlash paytigacha hisoblanadi. Regressiv usulda barcha yozuvlar muayyan boshlang'ich paytda diskontlangan va foiz hisobraqamni yakunlash paytigacha qoldiq summasiga boshlang'ich paytni ko'rsatgan holda hisoblanadi. Shtafel usulida foizlar muayyan yozuvni yozilgan paytdan boshlab, keyingi yozuv yozilguncha paytgacha alohida-alohida hisoblanadi, pog'onali usulda foiz summolari kreditni ayrim summalaridan kelib chiqib emas, balki «kreditlar», «investitsiyalar» hisobvarag'idagi olingan qoldiqdan kelib chiqib hisoblanadi.

Echilishi:

Echish uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$S = D/K * P * T: (P_1 * T_1),$$

Bu yerda S-mablag'dan foydalangani uchun to'lanadigan xaq(to'lov)

D/K-debet-kredit qoldiq;

P, P₁ -kredit uchun foiz;

T, T₁-muddat;

Echishning shtafel usuli.

$$S_1(d) = ((30000 - 10000) * 30\% * 15 \text{ kun}) / (360 \text{ kun} * 100\%) = 250 \text{ s.}$$

$$S_2(d) = ((20000 + 50000 - 60000) * 30\% * 38 \text{ kun}) / (360 \text{ kun} * 100\%) = 316,7 \text{ s.}$$

Hisoblashni shtafelli usulida qoldiq doim debetli va shunga ko'ra «Farg'ona don» kompaniyasi «Ipoteka bank»iga kreditdan foydalanganligi uchun $S_1 + S_2 + S_3 + S_4 + S_5 + S_6 = 26625 \text{ s}$ to'laydi.

Hisob-kitobni pog'onali usuli

Pog'onali usul shtafel usulining bir qismi bo'lgan yoki unga o'xshash bo'lgani uchun, biz kontokorrent shartnomani amal qilish davrida debet va kredit operatsiyalar bo'yicha to'lovni o'zgarishi ro'y beradigan alohida holatni ko'rib chiqamiz:

$$S_1(D) = 20000 * 30 * 15 / (360 * 100) = 250 \text{ s.}$$

$$S_2(D) = 10000 * 30 * 15 / (360 * 100) = 316,7 \text{ s}$$

Hisob-kitobni progressiv usuli

Kreditdan foydalanishni hisoblangan davri 177 kunga teng.

$$S_1(D) = 30000 * 30 * 177 / (360 * 100) = 4425 \text{ s}$$

$$S_2(D) = 50000 * 30 * 162 / (360 * 100) = 6750 \text{ s.}$$

Kredit qismi bo'yicha foizlar:

$$S_1(k) = 10000 * 20 * 177 / (360 * 100) = 980 \text{ s.}$$

$$S_2(k) = 60000 * 20 * 162 / (360 * 100) = 5400 \text{ s.}$$

Natija kredit va debet qoldiq summalari o'rtasidagi farq sifatida hisoblanadi.

$S(D)-S(k)=78430-34140=44290$ so'mni «Farg'ona don» kompaniyasi «Ipoteka» bankiga shartnoma bo'yicha to'laydi.

Hisob-kitobni regressiv usuli

Hisob-kitobni bu usuli shartnomani tugash muddati noma'lum bo'lgan va shunga o'xshash sharoitlarda qo'llaniladi.

Debet qismi bo'yicha foizlar:

$$S_1(D)=S_{1,1}-S_{1,2};$$

$$S_{1,1}=180*30000*30/(360*100)=4500s.$$

$$S_{1,2}=4*30000*50/(360*100)=100s.$$

$$S_1(d)=4500-100=4400s.$$

$$S_2(d)=(50000*30*180/(360*100))-(50000*30*19/(360*100))=6710s.$$

Kredit qismi bo'yicha foizlar:

$$S_1(k)=(10000*20*180/(360*100))-(10000*20*4/(360*100))=980s.$$

$$S_2(k)=(60000*20*180/(360*100))-(60000*20*19/(360*100))=5370$$

Umumiy qoldiqni hisoblashda ma'lum bo'ldiki, «Farg'ona don» kompaniyasi «Ipoteka» bankiga kontokorrent hisobidagi debet qoldiq uchun to'laydi.

2-topshiriq

A banki B firma bilan kontokorrent shartnoma tuzadi. Kontokorrent shartnomaga muvofiq qarzdorni kontokorrent hisob debet qoldigi bo'yicha to'laydigan foizi yillik 40%ga, kreditorni kontokorrent hisob kredit qoldigi bo'yicha to'laydigan foizi esa yillik 30%ga teng.

Kontokorrent shartnomada A banki operatsiyalardan foiz olishdan tashqari, o'z xizmatlari uchun komission yig'imlar olishi ko'rsatilgan. Komission yig'im har bir operatsiyadan ularni bank uchun xatarlilik darajasiga qarab olinadi. Barcha operatsiyalar xatarlilik darajasi bo'yicha uch guruhga bo'lingan:

1. Ta'minot yo'q-yozuv summasidan 0,1%;
2. Qiyin sotiladigan ta'minot-yozuv summasidan 0,05%;
3. Likvid ta'minot-yozuv summasidan 0,02%;

kreditlash limiti 500m.s.ga teng. 1 yilda 360 kun. Kontokorrent shartnoma 1998 yil 1.01da imzolangan kundan boshlab tugaydigan kungacha (uni ham qo'shgan xolda) amal qiladi.

B firmaga ochilgan kontokorrent hisob bo'yicha quyidagi yozuvlar bajarilgan:

1. 10 yanvar-hisob debeti 100 m.s;
2. 20 yanvar-hisob krediti 50 m.s;

3. 15 mart-hisob debeti 300 m.s;
4. 10 may-hisob krediti 800 m.s;
5. 10 iyun-hisob debeti 700 m.s;
6. 30 iyun-hisob krediti 100 m.s;

10.01 yozuvi qimmatli qog'ozlar bilan, 15.03 qandillar bilan, 10.06 yozuvi barqaror moliyaviy ahvolga ega bo'lgan «rassvet» tijorat banki kafolati bilan ta'minlangan.

Kredit haqi tarkibiga komission yig'imlar qo'yiladigan, kredit uchun foiz shtafel usulida hisoblanadigan holda, kontokorrent holatidan foydalanganligi uchun to'lov miqdorini aniqlang.

Echilishi:

SHtafel usulida yechish usuli (tartibi) 1topshiriqda ko'rsatilgan.

Komission foizni hisoblash usulini keltiramiz.

1. yozuv bo'yicha foiz quyidagicha hisoblanadi;

$$K=100000*0,02/100=20 \text{ s.}$$

2. yozuv bo'yicha:

$$K=300000*0,05/100=150 \text{ s}$$

3. yozuv bo'yicha:

$$K=700000*0,02/100=140 \text{ s.}$$

3-topshiriq.

A banki B firmasi bilan kontokorrent shartnoma tuzdi. Kontokorrent shartnomaga muvofiq, qarzдор tomonidan kontokorrent hisobni debet qoldig'i bo'yicha to'laydigan foizi yillik 10%ga;

Kreditorning kontokorrent hisobining kredit qoldig'i bo'yicha to'laydigan foizi esa yillik 5%ga teng.

Kontokorrent shartnomada ko'rsatilishicha A banki operatsiyalardan foiz olishdan tashqari, o'z xizmatlari uchun komission yig'imlar oladi. Komission yig'im qarz mablag'larini qo'yish xatari darajasidan qat'iy nazar, debet qoldiqning o'sish summasidan yillik 0,5% stavka bo'yicha olinadi.

Kreditlash limiti 200 m.s . bir yilda 360 kun. Kontokorrent shartnoma 1998 yil 1 martda imzolangan, shartnomani tugash sanasi 1998 yil 1 aprel. SHartnoma imzolangan kundan boshlab 31 martgacha (qo'shib hisoblaganda) amal qiladi.

B firmasiga ochilgan kontokorrent hisob bo'yicha quyidagi yozuvlar bajarilgan:

- 1 mart-hisob debeti 10 m.s.
- 5 mart-hisob krediti 20 m.s.
- 15 mart-hisob debeti 30 m.s.
- 18 mart-hisob krediti 90 m.s.
- 21 mart-hisob debeti 40 m.s.
- 31 mart-hisob debeti 100 m.s.

Uning tarkibiga komission yig'irlar va regressiv metodda hisoblanadigan kredit uchun foiz kiradigan shartda kontokorrent kreditdan foydalanish xaqini aniqlang.

Echilish:

$$K_1=100000*0,5*30/360*100=4,2s.$$

$$K_2=200000*0,5*15/360*100=6s.$$

$$K_3=400000*0,5*10/360*100=5,6s.$$

$$K_4=1000000*0,5*1/360*100=1,4s.$$

$$K_{umum}=4,2+6+5,6+1,4=17,2s$$

Foydalanishga tavsiya etilayotgan adabiyotlar

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasida mikrokreditlashni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 309-sonli Qarori, 2002 yil 30 avgust
2. Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim // O'zbekiston ovozi. -2005. -11 fevral.
3. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. -T.: O'zbekiston, 2005.
4. Abdullaeva SH.Z. Pul, kredit va banklar: Darslik. -T.: Moliya, 2000. 312 b.
5. Abdullaev Ye., Bobokulov T.I. Kredit: 100 savol va javob. -T.: Mehnat, 1997.
6. S.S. Gulomov i dr. Den'gi, banki, kredit: Uchebnoe posobie / S.S. Gulomov, Yu.T. Dodoboev, A. Kucharov: pod. red. S.S. Gulomov. -T.: 2002. 298 str. str. 162-177

Internetdan olingan veb saytlar:

www.uzland.uz

www.Referat.ru

www.cer.uz

3-bob. “Moliya va moliya tizimi”.(4-soat)

Bu mavzu o'rganishda talaba e'tiborini: Moliyaning mohiyati va funktsiyalari. Moliya tizimi va uning asosiy bo'g'inlari. Davlatning moliya siyosati. Moliyaviy boshqaruv organlari va ularning tashkiliy tuzilishi. Moliyaning funktsiyalari. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy rejalashtirish va prognozlash. Ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarni moliyaviy tartibga solish. Moliyaviy nazorat. Moliyaviy nazoratning shakllari va usullari.

Inflyatsiya darajasi (%) o'zining xarid qobiliyatini bazis yili darajasida saqlab qolishi uchun dastlabki summani qancha foizga oshirish kerakligini ko'rsatadi. Inflyatsiya indeksi narxlar ko'rib chiqilayotgan davr mobaynida necha marta o'sganligini ko'rsatadi.

SHunday qilib, shartga ko'ra, inflyatsiya darajasi quyidagiga teng:

$$i = (121 - 110) / 110 = 0,1 \text{ (10\%)}.$$

Demak, narxlar 10% ga oshgan.

Bunda inflyatsiya indeksi quyidagiga teng:

$$I = 1 + 0,1 = 1,1.$$

Ko'rinib turibdiki, narxlar 1,1 marta oshgan.

“70 kattaligi qoidasi” narxlar darajasi ikki marta oshishi uchun zarur bo’lgan yillar miqdorini hisoblab topish imkonini beradi. SHakllangan holda “70 kattaligi qoidasi” ni quyidagi ko’rinishda tasavvur qilish mumkin:

$$t=70/i(\%)$$

bu yerda t - narxlar darajasi (inflyatsiya indeksi) ning ikki marta oshishi uchun zarur bo’lgan yillarning taxminiy soni.

Agar $i=2\%$, u holda $t=70/2=35$ yil, ya’ni narxlar darajasining mavjud o’sish darajasida ularning ikki marta o’sishi uchun zarur bo’lgan yillar miqdori 35 yilga teng.

Agar $i=3\%$, u holda $t=70/3=23,3$ yil.

Agar $i=5\%$, u holda $t=70/5=14$ yil.

Agar 10% , u holda $t=70/10=7$ yil.

2-masala.

Davlat byudjeti tomonidan ijtimoiy maqsadlarga mo’ljallangan va ro’y berishi mumkin bo’lgan inflyatsiya oqibatida qadrsizlanishdan himoya qilinishi lozim bo’lgan $K=350$ p.b. miqdoridagi mablag’lar ko’zda tutilgan. Bashoratlarga ko’ra byudjet yilida inflyatsiya darajasi quyidagicha bo’lishi kutilmoqda: dastlabki 7 oylikda – i_1 =oylik $2,5\%$, qolgan oylarda – i_2 =oylik $2,7\%$. Inflyatsiya oqibatida himoya qilingan xarajatlarni qoplash uchun zarur bo’lgan davlat byudjeti zahira mablag’lari summasini aniqlang.

Echish.

Hisobot davri uchun inflyatsiya indeksi quyidagi formula bo’yicha hisoblab topiladi:

$$I_n=(1+i_1) \times (1+i_2) \times \dots \times (1+i_n),$$

bu yerda i – i oydagi inflyatsiya darajasi.

Qaysiki, dastlabki 7 oyda va qolgan oylarda inflyatsiya darajasi doimiy bo’lgani uchun, formula quyidagi ko’rinishga ega bo’ladi:

$$I_n=(1+0,025)^7 \times (1+0,027)^5=1,1886856 \times 1,424893=1,3580605$$

SHunday qilib, byudjet zahira mablag’lari summasi quyidagiga teng bo’lishi kerak:

$$P=K \times I_n - K=350 \times 1,3580605 - 350=125,32 \text{ p.b.}$$

3-masala.

Hukumat 1 yil muddatga 5% li stavka bilan 100 ming dollar qarz oldi. Aniqlang: Yil oxiriga hukumat qarz summasining qanchasini to’lashi kerak?

Agar yillik inflyatsiyaning o’sish sur’ati 3% ga teng bo’lsa, ushbu summa nominalga teng bo’ladimi?

Inflyatsiyasiz sharoitda qarz summasi va foiz miqdori qancha bo’ladi?

Agar yillik inflyatsiyaning o’sish sur’ati 4% ni tashkil etsa, qarz summasi va inflyatsiyani hisobga olib to’g’rilangan foiz stavkasi qancha bo’ladi?

Echish.

Qarzning o'stirilgan summasini oddiy foizlar formulasi yordamida aniqlanadi:

$$K_n = K_0 \times (1 + p \times n) = 100000 \times (1 + 0,05 \times 1) = 105000 \text{ doll.}$$

Inflyatsiyani hisobga olgan holdagi qarz summasi, joriy narxlarda ifodalangan qarz summasidan farqli ravishda, real deb ataladi. Qarzning real summasi nominal qarz summasini inflyatsiya indeksiga bo'lishdan olingan hosila sifatida aniqlanib, u narxlar ko'rib chiqilayotgan davrda necha marta o'sganligini bildiradi.

Berilgan holatda inflyatsiya indeksi 1,03 ni tashkil etadi $((100+3)/100)$.

Demak, qarzning real summasi quyidagiga teng:

$$K_r = K_n / I = 105000 / 1,03 = 101941,74 \text{ doll.}$$

Inflyatsiyasiz sharoitda qarz summasi 105000 doll.ni, shu jumladan, foiz summasi 5000 doll. ni tashkil etadi.

Agar qarz shartnomasida inflyatsiya ehtimoli va uni hisobga olgan holda hisob-kitoblarni to'g'rilash zarurligi aytib o'tilgan bo'lsa, u holda inflyatsiya darajasi 4% bo'lganda, qarz summasi ushbu kattalikka oshiriladi. Qarz summasi quyidagicha bo'ladi:

$$K_d = K_r \times I = 101941,74 \times 1,04 = 106019,41 \text{ doll.}$$

Foizlar summasi bu holda 5000 doll.dan 9200 doll.gacha o'sadi.

7-bob. “Qimmatli qog'ozlar va fond birjasi”.(4-soat)

Ushbu bobda talaba quyidagilarni o'rganadi Qimmatli kog'ozlarni umumiy tushunchasi. Qimmatli kog'ozlarni maxsus xususiyatlari va turlari. Qimmatli qog'ozlari asosiy turlari. Aktsiyalar. Aktsiyaning mohiyati va o'ziga xos xususiyati. Oddiy aktsiyalar. Imtiyozli aktsiyalar. Egasining nomi yozilgan aktsiyalar. Talab qilib olinadigan aktsiyalar. Oltin aktsiyalar. Kumulyativ aktsiyalar. Dividentlar. Divedent siyosati. Obligatsiyalar. Obligatsiyalarning mohiyati va xususiyatlari. Davlat obligatsiyalari. Imunitsipal obligatsiyalari. Korxonalar obligatsiyalari. Veksel. Vekselning mohiyati va xususiyati. Oddiy veksel. O'tkazma veksel. Bank veksellari. Xazina veksellari. Depozit sertifikatlari. Ularning mohiyati va xususiyatlari. TSessiya. TSedent. TSessinariya. Xazina majburiyatlari. Ularning mohiyati va xususiyatlari.

Hosilaviy qimmatli qog'ozlar to'g'risida umumiy tushuncha. Hosilaviy qimmatli qog'ozlarning turlari. Optsion. Optsion shartnomalari hakida tushuncha. Sotishga bo'lgan optsion. Sotib olishga bo'lgan optsion. Yevropa opsi. Amerika opsi. Varrant haqida tushuncha. Varrantning o'ziga xos xususiyatlari. Bazis aktiv. Fyuchers. Fyuchers shartnomalari haqida tushuncha. Fyuchersning o'ziga xos xususiyatlari.

Aktsiyadorlik jamiyatlarini tashkil etishning zarurligi va uning mohiyati. Aktsiyadorlik jamiyatlarining turlari. Yopik turdagi aktsiyadorlik jamiyat. Ochik turdagi aktsiyadorlik jamiyati. Aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishi. Aktsiyalarni nazorat paketi va unda aktsiyadorlarni qatnashish tizimi.

Fond birjasi bozor iqtisodiyotini muhim instituti va uning ahamiyati. Fond birjasi faoliyatini o'ziga xos xususiyatlari. Fond birjalarining hozirgi zamon tashkiliy asoslari. "Toshkent" RFB va uning bo'linmalarining funktsiyalari. Qimmatli qog'ozlar kotirovkasi haqida tushuncha. Toshkent RFB Qimmatli qog'ozlar listingi buyicha talablari. Listing. Delisting. Dunyoning yirik fond birjalarining qimmatli qog'ozlar listingiga qo'yiladigan talablar. Reyting. Reyting faoliyati.

Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida tushuncha. Qimmatli qog'ozlar bozori turlari. Qimmatli qog'ozlarni birlamchi va ikkilamchi bozori. qimmatli qog'ozlarni birja va birjadan tashqari bozori. Qimmatli qog'ozlarni tashkil etilgan va tashkil etilmagan bozori. Qimmatli qog'ozlarni regional, milliy va xalkaro bozorlari. Ushbu bob bo'yicha quyidagi seminar mashg'ulotlari o'tkaziladi.

18-mashg'ulot

Mavzu 18. Qimmatli qog'ozlar va ularning ta'rifi. (2 soat)

Reja:

- 1.Qimmatli qog'ozlar haqida tushuncha.
- 2.Qimmatli qog'ozlar turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari.
- 3.Hosila qimmatli qog'ozlari
- 4.Fond birjasi va uning faoliyatini o'ziga xos xususiyatlari.
- 5.Qimmatli qog'ozlar bozori, uning turlari va ishtirokchilari.

O'quv topshiriqlari

1-guruh.

Quyidagi masalani yeching

Bankning mijozi bo'lgan korxona bankning aksiyalariga 1200 ming so'mga obuna bo'ldi. Bunda u bankka 300 ming so'm to'ladi. Aksiyalarning nominal bahosi 1000 ming Sum. Korxonaning harakatlarini izohlang.

2-guruh

Quyidagi masalani yeching

Bank korxonaga nominal bahosi 1000 ming so'm bo'lgan aksiyalarni ularning qoldiq bahosi uchun 900 ming so'm kelib tushgandan keyin sotdi. Bank bilan korxona o'rtasidagi munosabatlarni yoritng.

1-ilova

Guruh ishlarini baholash jadvali

Guruh	Javobning	Berilayotgan	Guruh	Jami ballar
-------	-----------	--------------	-------	-------------

	to'liqligi, Aniqligi va tushunarligi (mak 0,8)	ma'lumotning ko'rinishi (mak 0,5)	a'zolarining faolligi (mak 0,2)	
1				
2				
3				

2-ilova.

Munozara qatnashchilariga eslatma

1. Munozara munosabatlar yig'indisi emas, balki muammo yechimi uslubiyatidan iborat.
2. Ko'p gapirmasdan, boshqalarning so'zlashiga imkon ber.
3. Maqsadga erishish yo'lida xissiyotlarinni jilovlab, batafsil o'ylagan holda so'zla.
4. Raqiblarning vaziyatini o'rganib, ularga xurmat bilan murojaat qil.
5. Raqiblarning tomonidan aytilgan fikrlarga tanqidiy va mulohazali yondash.
6. Munozara predmeti bo'yicha chetga chiqmagan holda to'g'ri yondashib gapir.

Munozara reglamentini o'tkazish tartibi

1. Boshlovchi ma'ruza mavzusi va ma'ruzachilarning taqdimotlarin e'lon qiladi.
2. Ma'ruza 5 minut davom etadi.
3. Taqrizchi – 2 minut.
4. Raqib – ma'ruza mavzusi bo'yicha fikrlarini 1-3 minut taqdim etadi.
5. Jamoaviy muhokama – 5-10 minut.

O'quv topshiriqlari

1-guruh.

Quyidagi masalani yeching va izohlang.

Bank jismoniy shaxs bo'lgan aktsiyadordan 10 ta nominal qiymati 1000 ming so'm bo'lgan oddiy aktsiyani 1100 ming so'mga qaytarib sotib oldi. Bunday holdagi bank va mijoz o'rtasidagi operatsiyani yozma shaklda yoriting

2-guruh

Bank va mijoz o'rtasidagi operatsiyani yozma shaklda yoriting.

Bank jismoniy shaxs bo'lgan aktsiyadarga nominal qiymati 1000 so'mdan bo'lgan 4 ta oddiy aktsiyani 1150 sumdan qaytadan sotdi.

3-ilova.

“Insert usuli”

Insert - samarali o'qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o'qib-o'rganishda yordam beradi. Bunda ma'ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o'qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o'z fikrini ifodalaydi.

Matnni belgilash tizimi

(v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+) – yangi ma'lumot.

(-) – men bilgan narsaga zid.

(?) – meni o'ylantirdi. Bu borada menga qo'shimcha ma'lumot zarur.

Insert jadvali

Tushunchalar	V	+	-	?
Qimmatli qog'oz				
Aktsiya				
Obligatsiya				
G'azna majburiyati				
Depozit sertifikatlar				
Listing				
Hosilaviy qimmatli qog'oz turlari				
Dividend				

Masala 1.

Tashkilot bankdan veksel oldi, veksel orkali u 10.000.000 sum olishi kerak (vekselni nominal qiymati). Olish vaktida vekselni narxi 8.000.000 sumni tashkil kildi. Foiz va xisob stavkasi (diskont) aniqlansin.

Blits-so'rov uchun savollar

1. Qimmatli qog'oz tushunchasiga ta'rif?
2. Fond birjasi nima?
3. Qimmatli qog'ozlar hosilalarining mohiyati nima?
4. Aktsiyaning qanday turlari mavjud?
5. Fond birjasining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

Talabalar bilimini mustahkamlash uchun test savollari

1. Qimmatli qog'ozlarning eng asosiy xossalari nima?
A) To'lovga layoqatlilik.
B) Likvidlik.
C) Qarzlarning o'z vaqtida qaytarilishi.
D)*A, V, S javoblar.

2. Birja shov-shuvi deganda:
A) Birja bitimlarini tuzish.

- B) Birjada sotilgan qimmatli qog'ozlarning e'lon qilingan narxi.
C) Qimmatli qog'ozlarning birjadagi harakatini ifodalovchi ko'rsatkich.
*D) Fond bozorida qimmatli qog'ozlar kursining qisqa muddat, ammo birdan g'oyat oshib ketishi.

Foydalanishga tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. -T.: O'zbekiston, 2005.
2. Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim // O'zbekiston ovozi. -2005. -11 fevral.
3. Butikov I. Qimmatli qog'ozlar bozori: Darslik. -T.: Konsauditform, 2001 14-59, 61-125 betlar
4. Yunusmatov M. va boshq. Tadbirkor qimmatli qog'ozlar bozorida: Savollar va javoblar. -T.: Adolat, 2002.
5. Lorens Dj. Gitman, Maykl D. Djonk. Osnovq investirovaniya: Per. s angliyskogo.- M.: Delo, 1997. s 991.
6. Ekonomika predpriyatiya: Uchebnik dlya vuzov / Pod red. F.K.Bea, E.Dixtla, M. SHveytsera. Per. s nemetskogo.- M.: Infra - M, 1999. 928 s.
7. Richard A.Brealey, Stewart C. Myers. Principles of corporate finance. 6th ed.: Irwin - McGraw Hill, 2000. 1093 p.

Internetdan olingan veb saytlar:

www.uzland.uz
[www. Rambler. ru](http://www.Rambler.ru)
www. Google.ru
www. Referat.ru
<http://www.boj.or.jp/en/siryo.htm>
www.cer.uz

8-bob. “Valyuta munosabatlari va valyuta tizimi”.(4-soat)

Ushbu bobni o'rganishda talabalar e'tiborni quyidagilarga qaratmog'i lozim: Valyuta munosabatlari va valyuta sistemasini asosiy belgilari. Xalkaro valyuta munosabatlari: tushunchasi, ularni takror ishlab chikarish va savdo bilan to'g'ri hamda qaytma aloqasi.

Valyuta sistemasi, tushunchasi. Milliy, jahon va xalkaro valyuta sistemalari.

Valyuta bozorlari: tushunchasi, instituttsional struktura. Valyuta bozorida transmilliy korporatsiya va banklarni ahamiyati. Valyuta bozorlarini turlari.

CHet el valyutalarini kotirovkasi. Kotirovka metodlari: to'g'ri va egri. Kross – kurslar. Sotuvchilar va sotib oluvchilar kurslari. Marja va uni axamiyati. Banklararo valyutalar kursini aniqlashni uslubi sifatida – fiksing.

Valyuta operatsiyalarini tavsiflanishi. Valyuta pozitsiyasi (qiska, uzun) va ochik valyuta pozitsiyasida banklarni ko'rishi mumkin bo'lgan talofatlar. Darxol yetkazib berish bilan bog'lik bo'lgan valyuta operatsiyalari ("SPOT")

CHet el valyutasi bilan muddatli shartnomalar buyicha valyutalar kursi. Mukofot va diskont. "Autrayt" kursi. Muddatli shartnomalar buyicha valyuta kurslarini valyuta bozoridagi foiz stavkalari bilan uzaro alokasi.

Muddatli valyuta shartnomalaridagi, valyuta risklaridan Sug'urta qilish metodi sifatida foydalanish. Optsion shartlari asosida autrayt shartnomalari. Stellaj operatsiyasi. Valyuta chaykovchiligi: "Lidz end legz". Xedjirovanie.

"SVOP" operatsiyalari, mohiyati, maqsadi, axamiyati. "SVOP" bozori.

Valyuta arbitraji. Valyuta arbitrajini okibatlari. Valyuta operatsiyalarini tartibga solish va nazorat. Foiz arbitraji.

Evrovalyuta bozorida valyuta operatsiyalari. Yevrovalyuta bozori tushunchasi, rivojlanish fa5ktorlari, uziga xos xususiyatlari, operatsiyalari. Xalkaro valyuta - kredit munosabatlarida yevrovalyuta bozorini axamiyati.

Xalkaro xisob – kitoblar balansi, tushunchasi va tavsiflanishi. Tulov balansi, uni asosi va mazmuni, tulov balansini turkumlanishi. Xisob – kitob balansi, uni tulov balansidan farki. Tulov balansiga ta'sir etuvchi uslublari.

Milliy va rezerv valyuta. Erkin almashinadigan valyuta. Xalkaro xisob – kitob pul birliklari. Xalkaro valyuta sistemasiga kuyiladigan talablar va ularni buzilishi. Xalkaro valyuta sistemasini evolyutsiyasi. Parij, Genuya, Bretton-Vuds va Yamayka valyuta sistemalarini struktura printsiplari: ularni alokalari, bir-biridan farki. Yevropa valyuta sistemasini printsiplari.

Valyuta munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solish. Valyuta siyosati: tushuncha, maqsad, shakillar. Diskont siyosati. Deviz siyosati, valyuta interventsiyasi – milliy va kollektiv. Valyuta paritetlarini va kurslarini rejimini tartibga solish. Belgilangan va tez uzgarib turadigan valyuta kursi. Kursni individual va kelishilgan xolda erkin uzgarib turishi.

Xalkaro valyuta – munosabatlarida oltinni axamiyati. Oltin demonetizatsiyasi xakida tushuncha, sabablari, karama – karshiliklari va okibatlari.

Mamlakatlar tulov balanslarini asosiy belgilari. Asosiy belgilari. AKSH, Angliya, FRG, Frantsiya, Yaponiya tulov balanslarini uziga xos xususiyatlari.

Xalkaro xisob – kitoblarni tushunchasi va sharoitlari. Korrespondentlik schyotlari. Xalkaro xisob-kitoblarda milliy valyuta va oltinni axamiyati. Tashki iqtisodiy shartnomalarni valyuta-moliyaviy va tulov sharoitlari.

Xalkaro xisob-kitoblarni shakllari. Xalkaro xisob-kitoblarni uziga xos xususiyatlari.

Valyuta risklari va shartlari. Oltig shartlari, uni bekor qilish sabablari. Valyuta va kupvalyutali shartlar, ularni shakllari, kullanish xususiyatlari. Kupvalyutali shartlarga xalkaro pul xisob-kitob birliklarini ishlatilishi. Komdinatsiyalashgan valyuta-tovar ogovorkasi.

Xalkaro kredit-iqtisodiy kategoriya sifatida. Mohiyati, funktsiyalari va ahamiyati. Davlatlarni tashki savdosida kreditni ahamiyati. Xalkaro kreditni shakllari.

Valyuta – kredit va moliya tashkilotlarini umumiy xarakteristikasi. Ularni vujudga keltirish sabablari, maqsadlari, ahamiyati.

Xalkaro valyuta fondi. Xalkaro valyuta fondi resurslari va unda ovozlarini taqsimlanishi. Bu fondni boshkarilish tarkibi va uni xalkaro valyuta – kredit munosabatlaridagi ahamiyati.

Xalkaro rekonstruktsiya va rivojlanish bankini gruppasi. Xalkaro rekonstruktsiya va rivojlanish bankini kredit siyosati, uni aktiv operatsiyalarini xarakteristikasi. Xalkaro rivojlanish assotsiatsiyasi va xalkaro moliya korporatsiyasi – xalkaro rekonstruktsiya va rivojlanish bankini filiallari, ularni faoliyatini uziga xos xususiyatlari.

Regional xalkaro rivojlanish banklari. Ularni paydo bulish shart sharoitlari, rivojlanish tendentsiyalari, tashkiliy tarkibi, resurslarini shakllanishi. Ushbu bob bo'yicha quyidagi seminar mashg'ulotlari o'tkaziladi.

19- mashg'ulot

Mavzu 19. Jahon valyuta tizimi va uning rivojlanish bosqichlari. Xalqaro valyuta bozori va valyuta operatsiyalari. (2 soat)

Reja:

1. Valyuta tushunchasi mohiyati. Valyuta kursini aniqlash usullari.
2. Valyuta tizimi tizimini asosiy belgilari, tushunchasi va turlari.
3. Valyuta tizimlari va ularning bosqichlari.
4. Hozirgi zamon valyuta tizimidagi o'zgarishlar.
5. Xalqaro moliya kredit tashkilotlari va ularning funktsiyalari

Foydalanishga tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida». O'zbekiston Respublikasining qonuni. -T.: O'zbekiston, 2000.
2. «Banklar va bank faoliyati to'g'risida». O'zbekiston Respublikasi qonuni. - T.: O'zbekiston, 2000.
3. «Valyutani tartibga solish to'g'risida». O'zbekiston Respublikasining qonuni. 2003y 11 dekabr.
4. Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori // Xalq so'zi. - 2005. -16 aprel.
5. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. -T.: O'zbekiston, 2005.
6. Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim // O'zbekiston ovozi. -2005. -11 fevral.

7. Vahobov A. va boshq. Xalqaro moliya munosabatlari: Darslik / A.Vahobov, N.Jumaev, U.Burxanov.-T.: SHarq, 2002. -399 b. 20-99 betlar.
8. S.S.Bulomov, Yu.T.Dodoboev. Xalqaro moliyaviy munosabat asoslari. Darslik. Toshkent-2003. 6-22, 39-59 betlar.
9. Xalqaro moliya. Elektron darslik. TDIU 2004.
- 10.Abdullaeva SH.Z. Pul, kredit va banklar: Darslik. -T.: Moliya, 2000. 312 b.
- 11.S.S. Gulomov i dr. Denʼgi, banki, kredit: Uchebnoe posobie / S.S. Gulomov, Yu.T. Dodoboev, A. Kucharov: pod. red. S.S. Gulomov. -T.: 2002. 298 str. 67-121, 249-260.

Internetdan olingan veb saytlar:

www.thebanker.com

www.bankinfo.uz

www.uzland.uz

www.federalreserve.gov

<http://www.bankofengland.co.uk/markets/forex/index.htm>

www.cer.uz

20 – mashgʻulot

Mavzu 20. Xalqaro hisob-kitoblar. Toʻlov balansi. (2 soat)

Reja:

- 1.Xalqaro hisob kitoblar va ularning turlari.
- 2.Xalqaro kreditlar va ularning turlari.
- 3.Mamlakat toʻlov balans iva uning tarkibi.
- 4.Xorijiy investitsiyalar.

Talabalar bilimini faollashtiruvchi savollar:

1. Xalqaro hisob-kitoblar deganda nimani tushunasiz?
2. Xalqaro hisob-kitoblarning qanday shakllari bor?
3. Xalqaro kredit nima?
4. Xalqaro kreditlashning oʻziga xos xususiyatlari va tamoyillarini sanab bering?
5. Xalqaro kreditning qanday asosiy shakllarini bilasiz?
6. Xalqaro kreditlarda xatarlilik darajasi qanday aniqlanadi?
7. Xorijiy investitsiyalarga taʼrif bering.
8. Xorijiy investitsiyalarning shakl ava turlarini ayting.

Masala № 1.

Tijorat bankida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish boʻyicha quyidagicha kurslar belgilangan. Bunda frantsuz frankining Rossiya rubliga oldi-sotdi qilish kursi quyidagicha:
№ kurslar miqdori valyuta birligi

1. xarid kursi 43.90 RUR 10 FF

2. sotish kursi 44.20 RUR 10 FF

Italiya lirasini va Rossiya rubli orasidagi ayriboshlash kurslari:

№ kurslar miqdori valyuta birligi

1. xarid kursi 13.90 RUR 1000 ITL

2. sotish kursi 15.20 RUR 1000 ITL

Yuqoridagi kurslar va kross-kursga muvofiq frantsuz frankining (FF) Italiya lirasiga (ITL) kursini aniqlang.

Masala № 2.

Quyidagi kurslar ma'lum bo'lsa:

№ Kurslar

1. xarid kursi 1 \$ USA 195 VF

2. sotish kursi 1 \$ USA 205 VF

3. xarid kursi 1 \$ USA 1201 UZS

4. sotish kursi 1 \$ USA 1209 UZS

Berilgan kurslar va kross-kursga muvofiq Venger forintining o'zbek so'miga kursini aniqlang.

Masala № 3.

Quyidagi kurslar berilgan bo'lsin:

№ Kurslar

1. xarid kursi 1 GBR 173.75 JPY

2. sotish kursi 1 GBR 174.55 JPY

3. xarid kursi 1 JPY 27.10 RUR

4. sotish kursi 1 JPY 28.00 RUR

Kross-kursga muvofiq Angliya funt-sterlingining (GBR) Rossiya rubliga (RUR) kursini aniqlang.

Masala № 4.

Quyidagi kurslar berilgan bo'lsa:

№ Kurslar

1. xarid kursi 1 YeURO 1370.00 UZBS

2. sotish kursi 1 YeURO 1390.00 UZBS

3. xarid kursi 1 \$ USA 1201.00 UZBS

4. sotish kursi 1 \$ USA 1209.00 UZBS

Kross-kurs asosida yevroning AQSH dollariga kursini aniqlang.

Masala № 5.

Quyidagi kurslar berilgan bo'lsin:

Kurslar

1. xarid kursi 1 YeURO 1.12 \$ USA

2. sotish kursi 1 YeURO 1.28 \$ USA

3. xarid kursi 1\$ USA 29.00 RUR

4. sotish kursi 1\$ USA 31.00 RUR

Berilgan kurslar va kross-kurga muvofiq yevroning Rossiya rubliga kursini aniqlang.

Ushbu masalalarni yechishda quyidagi formulalardan foydalanish tavsiya qilinadi.

1-holat.

Valyuta kurslari A/V va A/S bo'lgan holatda:

№ Valyuta

kurslari

xarid kursi sotish kursi

1. A/V RAB1 NA birlik uchun RAB2 NA birlik uchun

2. A/S RAS2 NA birlik uchun RAB2 NA birlik uchun

Kross kursga muvofiq V valyutaning S valyutadagi xarid va sotish kurslari quyidagicha aniqlanadi:

RAS1 A/S xarid kursi

Xarid kursi =

RAB2 A/V sotish kursi

Bu yerda:

A,V,S- valyuta turlari;

RAB1- V valyuta bir birligiga to'g'ri keladigan A valyutani xarid qilish kursi;

RAB2- V valyuta bir birligiga to'g'ri keladigan A valyutani sotib olish kursi;

RAC1- S valyuta bir birligiga to'g'ri keladigan A valyutani xarid qilish kursi;

RAC2- S valyuta bir birligiga to'g'ri keladigan A valyutani sotib olish kursi;

NA- A valyutaning V va S valyuta kurslariga kotirovkasida o'rnatiladigan kotirovkalanadigan valyuta birligi miqdori. (Masalan A valyuta AQSH dollari bo'lsin va 1 AQSH dollari 1 \$ USA=1200 UZBS bo'lsa, u holda NA=1 bo'ladi).

Foydalanishga tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. -T.: O'zbekiston, 2005.
2. Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim // O'zbekiston ovozi. -2005. -11 fevral.
3. Vahobov A. va boshq. Xalqaro moliya munosabatlari: Darslik / A.Vahobov, N.Jumaev, U.Burxanov.-T.: SHarq 2002. -399 b. 134-197, 222-256 betlar.
4. S.S.G'ulomov, Yu.T.Dodoboev. Xalqaro moliyaviy munosabat asoslari. Darslik. Toshkent-2003. 22-25, 32-33, 192-207 betlar.
5. Xalqaro moliya. Elektron darslik. TDIU 2004.
6. Abdullaeva SH.Z. Pul, kredit va banklar: Darslik. -T.: Moliya, 2000. 312 b.

7. S.S. Gulomov i dr. Denъgi, banki, kredit: Uchebnoe posobie / S.S. Gulomov, Yu.T. Dodoboev, A. Kucharov: pod. red. S.S. Gulomov. -T.: 2002. 298 str. 84-121.

Internetdan olingan veb saytlar:

www.uzland.uz

www.cer.uz

9-bob. “Sug’urta va Sug’urta ishi” .(2-soat)

Bu bobni o’rganishda talaba o’z ehtiborini quyidagilarga qaratmog’i darkor:

Sug’urtaning iqtisodiy mohiyati. Sug’urta iqtisodiy kategoriya, uning zarurligi, funktsiyalari va bozor sharoitidagi ahamiyati. Sug’urtani obyektlar va risk darajasiga kura tavsifi.umumiy tamoyillari va asoslari. Tarmoklar, tarmoklararo, Sug’urtaning turlari shakllari. Majburiy va ixtiyoriy Sug’urtani tashkil qilish tamoyillari.

O’zbekiston Respublikasi Sug’urta qonunchiligi. Sug’urta to’g’risida O’zbekiston Respublikasi fukaro kodeksi. Korxonalar oborot va asosiy vositalari Sug’urtasi. Kishlok xujaligida sug’urtalash. Transport sug’urtasi. Fukaro mulklarining Sug’urtasi. Xayot Sug’urtasi. Baxtsiz xodisalardan sug’urtalash. SHaxsiy sug’urta buyicha to’lanadigan summani aniklash va tulash.Tadbirkorlik faoliyati buyicha sug’urta. Sug’urta faoliyatining moliyaviy asoslari. Bank faoliyatini sug’urtalash. Tashki iqtisodiy faoliyatini sug’urtalash. Ushbu bob bo’yicha quyidagi seminar mashg’ulotlari o’tkaziladi.

21- mashg’ulot

Mavzu 21. Sug’urtalash . (2 soat)

Reja:

- 1.Sug’urtaning mohiyati va funktsiyalari.
- 2.Sug’urtaning turlari va ularning belgilari.
- 3.Mol – mulk sug’urtasi. Uning o’ziga xos xususiyatlari.
4. SHaxsiy sug’urta va uning shakllari.
- 5.Sug’urta javobgarligi.

1- Joriy nazorat

1.Sug’urta nima?

A) Davlat tomonidan kurilgan zararni koplash

B) Korxonalarning foydasi xisobidan zararlarni korlash uchun tashkil qilingan fond

V) Davlat byudjeti orkali moliyalashtirish

*G) Xosil qilingan pul fondlari xisobidan zararni kisman yoki tulik koplash yuli bilan jismoniy va xukukiy shaxslar manfaatlari Sug'urtalanishini ta'minlashga doir munosabatlar

2.Sug'urtaning xususiyatlari:

A) Tabiiy ofatlar, baxtsiz xodisalar va talofatlar

*B) Xavf-xatar, chegaralangan, xududiy va vakt tushunchasi bilan boglik, kaytarilishi

V) Xavf-xatar, Sug'urta badali, Sug'urta koplamasi, shartnoma

G) Tasodifiy, xavf-xatar, zarar, Sug'urta koplamasi

3.Sug'urtaning funktsiyalari:

A) Xavf-xatar, omonat, baxtsiz xodisa, talofat

*B) Xavf-xatar, ogoxlantirish, investitsiya, omonat, axborot

V) Ogoxlantirish, moliyalashtirish, Sug'urta koplamasi berish, investitsiyalash

G) Axborot, investitsiya, Sug'urta fondini tashkil qilish, taqsimlash

4.Bozor iqtisodiyotiga utishda Sug'urtaning qanday yangi funktsiyalari vujudga keladi?

A) Investitsiya

B) Muomala

V) Xorijiy mamlakatlar bilan munosabat

*G) Axborot

5.O'zbekiston tarixida Sug'urtaning kaysi turlari oldin vujudga kelgan?

A) Fondsiz Sug'urta

B) Fondli Sug'urta

V) Sug'urta jamiyatlari va ularning bulimlari

*G) Zakot, sadaka shaklida

6.Sug'urtani iqtisodiy kategoriya katoriga kiritish mumkinmi?

A) Kiritib bulmaydi

B) Birlamchi kategoriya

*V) Ikkilamchi kategoriya

G) Noto'g'ri javob yuk

7.Tadbirkorlik faoliyatini Sug'urtalash bilan kaysi Sug'urta kompaniyasi shugullanadi?

A) "Kafolat" DXSK

B) UzagroSug'urta DXSK

V) "Uzbekinvest" eksport-import milliy Sug'urta kompaniyasi

*G) "Madad" Sug'urta agentligi

8.Sug'urta marketingi nima?

A) Maxalliy bozorlarni urganish

*B) Sug'urta ishlarining taktikasi va strategiyasini ishlab chikish

V) Jaxon bozorida Sug'urtaning axvoli va xillarini urganish

G) Noto'g'ri javob yuk

9.Sug'urta tashkilotlari qanday ruyxatga olinadi?

*A) Davlat Sug'urta nazoratida

B) Viloyat xokimligida

V) Vazirlar Maxkamasida

G) Oliy Majlisda

10.Sug'urta xakidagi qonun kachon kabul qilingan?

A) 1992 y

B) 1990 y

*V) 1993 y

G) 1994 y

11.Sug'urta faoliyati xakidagi qonun nechta moddadan tashkil topgan?

A) 35 modda

B) 33 modda

V) 27 modda

*G) 29 modda

12.UzagroSug'urta DASKi kachon tashkil topgan?

A) 1994 y

B) 1991 y

*V) 1997 y

G) 1996 y

13."Kafolat" DASKi kachon tashkil topgan?

A) 1991 y

B) 1992 y

V) 1996 y

*G) 1997 y

14. "Uzbekinvest" eksport-import milliy Sug'urta kompaniyasi kachon tashkil topgan?

A) 1995 y

B) 1996 y

*V) 1997 y

G) 1998 y

15.Sug'urtaning tashkiliy atamalariga qanday iboralar kiradi?

*A) Sug'urtalovchi, Sug'urtalanuvchi, Sug'urta ob'ekti, Sug'urta javobgarligi

B) Sug'urtaviy baholash, Sug'urta ta'minoti, Sug'urta summasi

V) Sug'urta bokimandasi, Sug'urta tulovi, Sug'urta ishi

G) Sug'urta muddati, Sug'urta ta'rifi, Sug'urta koplamasi

16.Sug'urta fondining shakllanishi bilan alokador atamalarga qanday iboralar kiradi?

*A) Sug'urtaviy baholash, Sug'urta ta'minoti, Sug'urta muddati

B) Balans bahosi, Sug'urta xodisasi, Sug'urta dalolatnomasi

V) Sug'urta vakili, Sug'urta koplamasi, Sug'urta guvoxnomasi

G) Sug'urta tulovi, Sug'urta rentasi, Sug'urta xodisasi

17.Sug'urta fondini sarflash bilan alokador atamalarni bilasizmi?

*A) Sug'urta rentasi, Sug'urta xavf-xatari, Sug'urta dalolatnomasi

B) Sug'urta bokimandasi, Sug'urta rentasi, Sug'urta tulovi

V) Sug'urta koplamasi, Sug'urta ishi, Sug'urtalanuvchi

G) Sug'urtalovchi, Sug'urtaviy baholash, Sug'urta tovonni

18.Sug'urta bozori nima?

*A) Sug'urta vakili uz ishxonasining faoliyati, taklif qilinadigan Sug'urta xillari va shartlari xakida axborot beradi va ularning birini tanlashga yordam beradi

B) Sug'urta vakili tomonidan bozorda Sug'urta polislarini sotish

V) Xorijiy mamlakatlar bilan xamkorlikda Sug'urta turlarini namoish etish

G) Viloyat, shaxar, tuman doirasida Sug'urtalangan ob'ektlarning polislarini sotish

19.Sug'urta franshizasi nima?

A) Sug'urta tashkiloti tomonidan kurilgan zararni koplash

*B) Yetkazilishi mumkin bulgan zararning umumiy mikdorini Sug'urta tashkiloti tomonidan koplanmaydigan kismi

V) Kurilishi mumkin bulgan zararni kuzda tutib taxminan Sug'urtalash

G) Sug'urta tashkilotining yagona polisi

20.Sug'urta brokeri kim?

A) Sug'urta tashkiloti va Sug'urtalanuvchining uzaro shartnomasini bajarishdagi munosabatlarini urganuvchi

B) Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy xo'jalik faoliyati ustidan mustakil tekshirishga vakil qilingan shaxs

*V) Sug'urta tashkilotlari tomonidan Sug'urtalangan ob'ektlarning Sug'urta polisini sotuvchi shaxs

G) A, B, V javoblar to'g'ri

2 SHaxsiy sug'urtaning ob'ekti nima?

*A) Inson hayoti va sog'ligini asrash.

V) Inson mol-mulkini shaxs tomonidan yetkazilishi mumkin bo'lgan zarardan asrash

S) Inson mol mulkini bir guruh shaxslar tomonidan o'g'irlanishidan saqlash

D) Inson mol-mulkini yong'indan sug'urtalash

3 SHaxsiy sug'urta vazifalariga quyidagilarning qaysi biri kiradi?

*A) Hamma javoblar to'g'ri

B) Respublikada shaxsiy sug'urta fondlarini shakllantirish

C) Sug'urta bozorini tashkil qilishda qatnashish

D) Qo'shimcha pensiya va boshqa sug'urta turlari orqali davlat pensiya ta'minotini takomillashtirish

4. Auditorlarning javobgarlik sug'urtasi bo'yicha zarar puli qaysi xollarda sug'urtalovchi tomonidan to'lanmaydi?

A) Noto'g'ri axborot taqdim etsa

B) Ko'rilgan zararda sug'urtalanuvchi aybsiz hisoblansa

C) Sug'urtalanuvchi va korxona ko'rilgan zararni ataylab qilmagan bo'lsa

*D) Noto'g'ri javob yo'q

5. Mol-mulk sug'urtasining ta'rif stavkalari sanoat tarmoqlari bo'yicha necha guruhga bo'linadi?

A) 3 guruhga

*B) 4 guruhga

C) 5 guruhga

D) 6 guruhga

6. Notarius tomonidan uchinchi shaxsga yetkazilgan moddiy zarar sug'urta qilinganda, sug'urta summasi eng kam ish xaqining 100 barobaridan 200 barobarigacha miqdorga teng bo'lsa, sug'urta badali necha foiz bo'ladi?

*A) 0.5

B) 1.5

C) 1

D) 2

7. Sug'urtaning tashkiliy atamalariga qanday iboralar kiradi?

*A) Sug'urtalovchi, sug'urtalanuvchi, sug'urta ob'ekti, sug'urta javobgarligi

B) Sug'urtaviy baholash, sug'urta ta'minoti, sug'urta summasi

C) Sug'urta boqimandasi, sug'urta to'lovi, sug'urta ishi

D) Sug'urta muddati, sug'urta ta'rifi, sug'urta qoplamasi

Foydalanishga tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. «Sug'urta to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. O'zbekiston yangi qonunlari. - T.: Adolat, 2002.
2. «O'zagrosug'urta» davlat-aktsiyadorlik sug'urta kompaniyasini tashkil etish to'g'risida. Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 6 martdagi qarori.
3. «Kafolat» davlat aktsiyadorlik sug'urta kompaniyasining tashkil qilish tug'risida. Vazirlar Maxkamasining 1997 yil 14 mart qarori.
4. O'zbekinvest, eksport-import milliy sug'urta kompaniyasini tashkil etish tug'risida. Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 18 fevral qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risi» 2002yil 27 noyabr.№413-sonli.
6. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. -T.: O'zbekiston, 2005.
7. Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim // O'zbekiston ovozi. -2005. -11 fevral.
8. Gulomov S.S. va boshq. Sug'urta ishi. / Gulomov S.S., Boev X.CH., Boeva J.B. -T., 2000. 93 b.
9. Yo'ldoshev M., Y. Tursunov. Sug'urta huquqi. T.; "Moliya" 2002 y. 196 b.
10. Finansi: / V.M. Radionova, Yu.Ya.Vavilov, L.I. Goncharenko i dr.: Pod redaktsiey professora V.M. Radionovoy. - M.: Finansi i statistika,1995. - str.431. str. 180-195, 217-235
11. H.Sobirov. Sug'urta: 100 savol va javob. T.; «Mehnat» 1998 y. 7-42, 52-61 betlar.

Internetdan olingan veb saytlar:

www.uzland.uz

www.cer.uz

Talabalar bilimini tekshirish uchun nazorat savollar

1. O'zbekistonda plastik kartochkalar orqali hisob-kitob naqd pulsiz hisob-kitoblarning yangi shakli.
2. Pulning funktsiyalari.
3. Pulning zarurligi va mohiyati. Pulning turlari.
4. Kredit munosabatlari rivojlanishining asosiy bosqichlari.
5. CHek va uning turlari.
6. Veksel va uning turlari.

7. O'zbekistonda milliy valyuta-so'mning muomalaga kiritilishi va uning o'ziga xos xususiyatlari
8. Pul aylanishi va uning mohiyati.
9. Pul aylanishining tarkibiy qismlari va ularning o'zaro bog'liqligi.
10. Naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilishning asoslari.
11. Naqd pulsiz hisob-kitob shakllari.
12. Pul muomalasi qonuni va uning mohiyati.
13. Pul massasi va pulning aylanish tezligi.
14. Pulga talab va taklif.
15. Pul muomalasini tartibga solish usullari.
16. Pul tizimi va uning turlari.
17. Bimetallizm va uning tarixiy ko'rinishlari.
18. Rivojlangan mamlakatlarning hozirgi zamon pul tizimi.
19. O'zbekiston Respublikasi pul tizimi.
20. Pul nazariyalarining kelib chiqishi va mohiyati.
21. Metall pullar nazariyasi.
22. Nominal pullar nazariyasi.
23. Hozirgi zamon pul nazariyalari: miqdoriy nazariya, monetarizm.
24. Ssuda kapitali harakati, uning xususiyatlari, ssuda kapitali bozori.
25. Fondlarning aylanishi va kreditning zarurligi.
26. Kreditning mohiyati va uning funktsiyalari.
27. Kreditning asosiy tamoyillari.
28. Tijorat krediti va uning shakllari.
29. Iste'mol krediti va uning o'ziga xos xususiyatlari.
30. Aktsept krediti
31. Lombard krediti.
32. Aval krediti.
33. Xalqaro kredit.
34. Diskont krediti.
35. Bank krediti va uning turlari.
36. Foiz stavkasi va unga taosir etuvchi omillar.
37. Jahon amaliyotida mikrokreditlashtirish va uning o'ziga xos xususiyatlari.
38. Individual kreditlash metodologiyasi.
39. Mikrokreditlashtirishning oddiy kreditlashtirishdan farqi.
40. O'zbekistonda mikrokreditlashtirish huquqiy bazasining shakllanishi.
41. Kredit tizimining mohiyati.
42. Kredit tizimining tashkiliy tuzilishi.
43. Kredit tizimining turlari..
44. Moliyaning mohiyati va uning funktsiyalari
45. Moliya tizimi va uning asosiy bo'linlari.
46. Davlatning moliyaviy siyosati.

47. Moliyani boshqarish.
48. Moliyaviy nazorat. Uning shakl va usullari.
49. Audit nazoratining tashkil topishi va rivojlanishi.
50. Davlat moliyasi tarkibi.
51. Davlat daromadlari va harajatlari.
52. Davlat byudjetining mohiyati, uning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardagi roli.
53. Davlat byudjeti daromadlarining asosiy manbaalari.
54. Davlat byudjeti harajatlari va uning asosiy yo'nalishlari.
55. Soliqlar va ularning funktsiyalari.
56. Mahalliy soliqlar va uning turlari.
57. Umumdavlat soliqlari va uning turlari.
58. O'zbekistonda daromad solibi va uning yillar bo'yicha o'zgarish dinamikasi.
59. O'zbekistonda jismoniy shaxslar daromadiga soliq va uning yillar bo'yicha o'zgarish dinamikasi.
60. Byudjet defitsiti va uni boshqarish.
61. Byudjetdan tashqari fondlar.
62. Davlat krediti va uning shakllari
63. Korxonalar moliyaviy resurslari, ularni tashkil etish va ishlatilishining o'ziga xos xususiyatlari.
64. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining aylanishida moliyaning o'rni.
65. Korxona aylanma mablaʼlari, ularni tashkil etish va ishlatilishi.
66. Foyda turlari.
67. Foyda - korxona moliyaviy resurslarini shakllantirishdagi asosiy manbaa.
68. Korxona foydasining taqsimlanishi va undan foydalanish.
69. Korxonalarda moliyaviy rejalashtirish.
70. Notijorat asosda faoliyat yurituvchi korxonalar moliyaviy resurslar manbaalari.
71. Notijorat faoliyat sohasida moliyaviy mexanizm.
72. Notijorat asosda faoliya yurituvchi korxonalarda moliyaviy rejalashtirish.
73. Korxona moliyaviy hisoboti va uning turlari.
74. Buxgalteriya balansining tuzilishi va tarkibi.
75. Korxona moliyaviy hisoboti tahlili.
76. **33.**Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot, uning tuzilishi
77. Markaziy bank, uni tashkil etish shakllari va funktsiyalari.
78. Markaziy banklarning asosiy operatsiyalari.
79. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, uning vazifalari va funktsiyalari.
80. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining pul kredit siyosatini amalga oshirishdagi asosiy instrumentlari

81. Markaziy bankning qayta moliyalashtirish siyosati.
82. Markaziy bankning hisob siyosati.
83. Markaziy bankning minimal majburiy rezerv meoyorlarni belgilash siyosati.
84. Markaziy bankning tagetirlashtirish siyosati.
85. Markaziy bankning ochiq bozor siyosati.
86. Valyuta operatsiyalari.
87. Tijorat banklarining iqtisodiyotdagi ahamiyati va vazifalari.
88. Tijorat banklari faoliyatini tashkil qilish asoslari.
89. Tijorat banklari boshqaruv strukturasi.
90. Tijorat banklarining passiv operatsiyalari.
91. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari.
92. Tijorat banklarida faktoring operatsiyalari.
93. Tijorat banklarida forfeyting operatsiyalari.
94. Tijorat banklarida lizing operatsiyalari.
95. Tijorat banklarining asosiy operatsiyalari.
96. Tijorat banklarining noanoanaviy operatsiyalari
97. Bank marketingi va tadbirkorligi.
98. Banklarda sug'urta va uning o'ziga xos xususiyatlari.
99. Inflyatsiya, uning mohiyati va sabablari.
100. Inflyatsiyaning turlari va paydo bo'lish shakllari.
101. Inflyatsiya nazariyalari.
102. Inflyatsiya ko'rsatkichlari.
103. Inflyatsiyaga qarshi kurash usullari va shakllari.
104. Inflyatsiyaning iqtisodiy tizimni makrodarajada boshqarish va moliyaviy barqarorlikdagi o'rni.
105. O'zbekiston Respublikasida inflyatsiya, uning turlari va shakllari
106. O'zbekistonda inflyatsiyaga qarshi kurashning o'ziga xos xususiyatlari.
107. Aktsiya va uning turlari.
108. Obligatsiya va uning turlari.
109. Depozit sertifikatlari va uning turlari.
110. Veksellar va uning turlari.
111. Jahon amaliyotida uchraydigan veksel turlari.
112. Hosila qimmatli qog'ozlar va ularning turlari.
113. Qimmatli qog'ozlar bozori va uning turlari.
114. Qimmatli qog'ozlari va uning iqtisodiyotdagi roli.
115. Qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilari.
116. Qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi bo'yicha bitimlarni amalga oshirishning asosiy bosqichlari.
117. O'zbekiston fond bozori bugungi holatining o'ziga xos xususiyatlari va uni rivojlantirish istiqbollari.
118. Dividendlar. Ularni aniqlash, hisoblab yozish va to'lash tartibi.

119. Dividendlarni to'lash usullari.
120. «Toshkent» RFB va uning bo'linmalarining vazifalari.
121. Birja savdolarini o'tkazish mexanizmi.
122. Listing tadbiri.
123. Qimmatli qog'ozlar kotirovkasi tushunchasi.
124. Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soluvchi organlar.
125. Qimmatli qog'ozlar bozorini davlat tomonidan tartibga solinishi zarurati.
126. Fond birjasi bozor iqtisodiyotining muhim muassasasi sifatida.
127. Jahon valyuta tizimining rivojlanish bosqichlari.
128. Evropa valyuta tizimi.
129. Oltin-dollar standarti va uning o'ziga xos xususiyatlari.
130. Xalqaro moliya tashkilotlari va ularning xalqaro moliya munosabatlarida tutgan o'rni.
131. Valyuta bozorining mohiyati, mazmuni va iqtisodiyotda tutgan o'rni.
132. Xorijiy valyuta va valyuta operatsiyalari.
133. Valyuta kursi va unga taosir etuvchi omillar.
134. Naqd kassa bitimlari.
135. Muddatli bitimlar bilan bo'liq operatsiyalar.
136. Xalqaro moliya munosabatlarida valyuta riskini boshqarish
137. O'zbekiston respublikasida valyuta operatsiyalarini rivojlantirishdagi mavjud muammolar.
138. To'lov balansining iqtisodiy mohiyati.
139. To'lov balansining ko'rsatkichlari va ularning tasniflanish usullari.
140. To'lov balansining qoldiini o'lchash usullari.
141. To'lov balansini tartibga solishning asosiy usullari.
142. To'lov balanslarini muvozanatlash usullari.
143. Xalqaro hisob kitoblar tushunchasi va ularning turkumlanishi.
144. Xalqaro hisob-kitob shakllari va ularning o'ziga xos xususiyatlari.
145. Xalqaro kreditning mohiyati va kreditlash tamoyillari.
146. Xalqaro kreditning asosiy shakllari.
147. Xalqaro kreditlar bo'yicha qarzdorlik muammosi va uni hal qilish yo'llari.
148. Xorijiy investitsiyalar.
149. Sug'urtaning mohiyati va zaruriyati.
150. Sug'urtaning funktsiyalari.
151. Sug'urta ishidagi asosiy tushunchalar.
152. Sug'urtaning turlari va ularning belgilari.
153. O'zbekistonda sug'urta qonunchiligi.
154. O'zbekistonda faoliyat yurituvchi sug'urta tashkilotlari va ularni boshqarish
155. Sug'urtani boshqarish tizimining o'zgarishi.

156. O'zbekiston Respublikasida faoliyat yurituvchi sug'urta tashkilotlari va ularni boshqarish tartibi.
157. Sug'urta marketingi.
158. Mol – mulk sug'urtasi. Uning o'ziga xos xususiyatlari.
159. Mol-mulk sug'urta shartnomasini tuzish va sug'urta badallarini to'lash tartibi.
160. SHaxsiy sug'urta va uning shakllari.
161. Sug'urta javobgarligi.
162. Qishloq xo'jalik korxonalarida sug'urta oboektlari va atamallari.
163. Ekinlarning hosilini sug'urtalash.
164. Tabiiy pichanzorlar, yaylovlar, tut daraxtlari bargi hosilini sug'urtalash.
165. Bog' va uzumzorlarni do'l urishdan sug'urta qilish.
166. Qishloq xo'jalik hayvonlarini sug'urta qilish.
167. Pilla hosilini sug'urta qilish.
168. Garovga qo'yilga yuklarni sug'urtalash.
169. Yuklarni sug'urtalash tartibi.
170. Qishloq xo'jalik korxonalari tomonidan bank kreditlarining qaytmaslik xavfini sug'urtalash.

Foydalanishga tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston -- bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos yo'li. T. 1993 y
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, T.; "O'zbekiston", 2002
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-tom. T; "Q
4. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida T. 1995 y
5. Karimov I.A. O'zbekiston XXI-asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari Toshkent «O'zbekiston» 1997 y.
6. O'zbekiston Respublikasining «Markaziy banki to'g'risida» qonun. «Xalk so'zi» gazetasi 1996 y.13 yanvar.
7. O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonuni. 1996 y.25 aprel.
8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy xujjatlari to'plami.T.: 2003.
9. O'zbekiston Respublikasi banklari o'rtasida elektron tqlovlar tizimi bo'yicha hisob-kitoblar yuritish to'g'risida Nizom (yangi tahrir) 2004 y. 2 may.
- 10.O'zbekiston Respublikasida nakd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar. 2004 y. 23 iyun.

11. Kredit axboroti milliy institutining ma'lumotlar bazasini shakllantirish hamda banklararo kredit byurosiga va tijorat banklariga kredit axborotlarni takdim etish tartibi to'g'risida Nizom. 2004 y. 21 may.
12. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi Qonun, T; "O'zbekiston", 2000.
13. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun, T; "O'zbekiston", 2000.
14. O'zbekiston Respublikasi Solik kodeksi, Xalk so'zi, 2002 yil 9 yanvar 6 son.
15. O'zbekiston Respublikasi Bank tizimi, T; "O'zbekiston", 2001. F.M. Mullajonov taxriri ostida.
16. «Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori «Xalq so'zi» gazetasi. 2005 yil 16 aprel.
17. O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi Qonuni 2003y 11 dekabr.
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. «Bozor islootlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» Toshkent. 14.06.2005 yil.
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. «Tadbirkorlik sub'ektlarini xuquqiy ximoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» Toshkent. 14.06.2005 yil.
20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. «Tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida» Toshkent. 15.06.2005 yil.
21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. «Mikrofimlar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi chora-tadbirlari to'g'risida» Toshkent. 20.06.2005
22. Polyak G.B. «Finansy denejnoe obraçenie kredit» M., «Yuniti» 2001 g
23. Somsonov F., «Finansy, kredit i denejnye obraçenie», M. 2003
24. Artemov N.M. Valyutnye rynki. M. 2001.
25. CHjen V.A. Pul va moliya bozorlari. T. 1997 y.
26. CHjen V.A. Bozor va ochiq iqtisodiyot. T. 1997 y.
27. CHjen V.A. Bozor qonunlari asoslari. T. 1997 y.
28. Abdullaev Ye., Koraliev T.M. "Pul", Toshkent, 1998 y.
29. Abdullaev Ye., Bobokulov T.I. "Kredit", Toshkent, 1997 y.
30. Abdullaeva SH.Z. Pul va pul tizimi. T.: 1997.
31. Den'gi, kredit, banki. Uchebnik pod red. V.V. Ivanova, B.I. Sokolova. M.; 2004.
32. Den'gi, Kredit. Banki: Uchebnik dlya vuzov Ye.F. Jukov, L.M. Maksimova, A.V. Pechnikova i dr. M.; YuNITI- DANA, 2003.

33. Don Patinkin. Denъgi, protsent i tsenq. –M.: Ekonomika, 2004. – 375 str.
34. Lizelott Suren. Valyutnqe operatsii M. “Delo” 2001.
35. Milyakov N.V. Finansы. Uchebnik. – M.: INFRA-M, 2004. – 543 str.
36. Molyakov D.S., SHoxin Ye.I. Teoriya finansov predpriyatiy. Ucheb. posob. – M.: FiS, 2001. – 300 str.
37. Nagoveshin V.M. Valyutnaya politika M.Fis.2003.
38. Sviridov O.Yu. Finansы, denejnoe obraщenie, kredit. Ekspress spravochnik dlya stud. vuzov. –M.: IKTS Mart, Rostov n/D. izd. TSentr Mart, 2004. – 179 str.
39. Tadbirkor Qimmatli qog’ozlar bozorida: Savollar va javoblar T; “Adolat”, 2002 Yunusmatov M. va boshqalar.
40. Titova N.E, Kojiev Yu.P. denъgi, kreit, banki: Ucheb. posobie dlya studentov VUZov. M.; Gumanit. sezd. tsentr VLADOS, 2003. 368 s.
41. Tojiboeva D. Iqtisodiyot nazariyasi: Ikkinchi kitob. Oliy o’quv yurtlari talabalari uchun o’quv qo’llanma./ M. SHarifxo’jaev ilmiy taxriri ostida. T.; “SHark” 2003 y. 416 b.
42. Finansы Denejnoe obraщenie, Kredit: Uchebnik dlya vuzov pod red. prof. T.B.Polyaka. M-; YuNITI- DANA, 2003. 512s.
43. Finansы. Uchebnik pod red. V.V. Kovalyova. M.; 2004.
44. Xalqaro moliya. Elektron darslik. TDIU 2004.
45. SH.Z. Abdullaeva Pul, kredit va banklar. T.; “Moliya” 2000 y. 312 b.
46. Rashidov O.Yu., Toymuxamedov I.R., Tojiev R.R., Karlibaeva R. “Pul muomalasi, kredit va moliya” (o’quv qo’llanma)- T., TDIU, 2005, 285 bet.

Internetdan olingan veb saytlar:

1. www.forex.com
2. www.thebanker.com
3. www.bankinfo.uz
4. www.uzland.uz
5. www.federalreserve.gov
6. www.bashexpo.ru
7. www.interunion.ru
8. www.e-tours.ru
9. www.travel-library.com www.thebanker.com
10. [www. Rambler. ru](http://www.Rambler.ru)
11. www. Google.ru
12. www.Yandex.ru
13. www. Referat.ru
14. www.bankinfo.uz
15. <http://www.bankofengland.co.uk/markets/forex/index.htm>
16. <http://www.bankofengland.co.uk/markets/money/index.htm>